

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

A.QO'LDOSHEV

S.XAMZAEV

INGLIZ TILI TARIXI

O'quv qo'llanma bakalavriat bosqichining 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) hamda 5111400 – Horijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan

Toshkent – 2015

Mas'ul muharrir: G.H. Boqieva, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: A.A. Ismoilov filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

B.S. Rajabov pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Qo'ldoshev A, Xamzaev S. – “Ingliz tili tarixi” – o'quv qo'llanma – bakalavriatura bosqichi talabalari uchun (Mas'ul muharrir; G.X. Boqieva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent - 2015 yil

Matn va titul: o'zbek va ingliz tilida.

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma filologik oliy ta'lim muassasalari bakalavriatura 3 – bosqich talabalari uchun ingliz tili tarixi kursi dasturida belgilangan mavzularni o'z ichiga olgan. Qo'llanma talabalarda ingliz tili tarixi fani bo'yicha egallanishi kutilayotgan bilim, malakalar minimumini shakllantirishga xizmat qiladigan matn, mashq, topshiriq va sinov savollarini o'z ichiga oladi.

Аннотация

Данное учебное пособие предназначается студентам 3 курса отделений и факультетов английской филологии высших учебных заведений Республики Узбекистан. Пособие содержит базовый материал включенный в типовую программу по курсу “История английского языка”. В пособии даются теоретический материал по темам, а также упражнения, задания и вопросы по изученным темам.

Annotation

The present manual is recommended to the 3rd – year students of the philology faculties of Universities. It contains the basic theoretical material on the discipline aimed at developing the students' knowledge and skills on the history of the English language.

Mundarija

Soʻz boshi	4
Kirish	6
German tillari toʻgʻrisida umumiy maʼlumot, german tillarining tasnifi va ularga oid yozma yodgorliklar	8
Ingliz tili tarixining boshlanishi haqida umumiy tarixiy ocherk	19
Qadimgi ingliz tilining fonetikasi	27
Qadimgi ingliz tili grammatik tuzilishi	42
Qadimgi ingliz tilining feʼl morfologiyasi	61
Oʻrta davr ingliz tili	94
Oʻrta davr ingliz tili grammatik tuzilishidagi asosiy oʻzgarishlar	115
Yangi davr ingliz tili. Ingliz milliy tilining hosil boʻlishi va rivojlanishi. Yangi ingliz tili sistemasidagi oʻzgarishlar	127
Savol va topshiriqlar	156
Ingliz tili tarixidan test savollari	165
Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar	171
Mustaqil ishlar uchun referat mavzulari	173
Ilova (Supplement).....	175
Foydalanilgan va tavsiya etilgan adabiyotlar roʻyxati	186

So'z boshi

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasida mavjud filologik oliy ta'lim muassasalari 3 bosqich talabalari tomonidan ingliz tili tarixi fanini o'rganishda foydalanish uchun tavsiya etilgan bo'lib, unda ingliz tili tarixini o'rganishda zarur bo'lgan bazaviy nazariy material, mashq, topshiriq, savol va testlar berilgan.

“Ingliz tili tarixi” fani filologik OTMLar bakalavriatura bosqichida o'rganiladigan eng murakkab fanlardan biri hisoblanganligi va respublikada bu fan bo'yicha o'zbek tilida hali darslik va o'quv qo'llanma yaratilmaganligi uchun mualliflarni dasturiy materialni imkoni boricha ko'proq qamrab olish uchun ayrim mavzularni yoritishda mavzu haqidagi nazariy materialni batafsil ko'rib chiqishni lozim topmadik.

Ingliz tili tarixini o'rganayotgan talaba bu fanni faqatgina ingliz tili tarixini turli davrlardagi ko'rinishlarining fonetik, grammatik va leksik, stilistik, xususiyatlari haqida gapiribgina qolmay, balki bu o'sha til hodisalari uchun iqtisodiy – siyosiy va ijtimoiy fon bo'lib xizmat qilgan voqea – hodisalar haqida ham axborot beradilar.

Odatda “Til tarixi” kursi ikki xil usulda beriladi. Birinchi usul til tarixini davrlarga bo'lib tasvirlash (B.A. Ilish, T.A. Rastorgueva) masalan: qadimgi ingliz tili, o'rta davr ingliz tili va h.k. Ikkinchi usulda esa muayyan til tarixida asosiy e'tibor davrlarga emas, balki til hodisalarining rivojlanishiga bag'ishlanadi. (V.M. Jirmunskiy, I.P. Ivanova va boshqalar). Bu holda “Til tarixi” darsligi asosan “Tarixiy fonetika”, “Tarixiy grammatika” shaklida bo'ladi.

Mazkur qo'llanmada ingliz tili tarixini tasvirlashda biz birinchi usulni tanladik hamda ingliz tili tarixini davrlarga bo'lib o'rganishga qaror qildik va darslikdagi materialni shu yo'sinda tizimladik.

Har bir paragraf asosiy tushuncha va atamalar, nazariy material, o'quv materialini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materialini o'z ichiga oladi. Qo'llanma

oxirida foydalanilgan va tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar va internet saytlari berilgan.

Qo'llanma ingliz tili tarixidan o'zbek tilida yaratilgan birinchi qo'llanma bo'lganligi uchun ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasligi tayin. Qo'llanmaning ayrim topshiriq va mashqlarini tuzishda O'zMU olim – mutaxassislari – filologiya fanlari nomzodi Sh.O. Nazirova, filologiya fanlari nomzodi Sh. Yusupovalar tomonidan taqdim etilgan materiallardan foydalanildi.

Mualliflar mazkur o'quv qo'llanmaning qo'lyozmasini o'rganib chiqib o'z foydali maslahatlari bilan qo'llanmaning sifatini yaxshilashga xizmat qilgan mutaxassis – olimlar professor Sh.Safarov, professor O'.Usmonov, professor M.Irisqulov, dotsent A.Sodiqov, dotsent A.Ismoilovga chuqur minnatdorchiliklarini izhor etadilar.

Kirish

Reja:

1. Kursning maqsadi va vazifalari.
2. Ingliz tilining davrlarga bo'linishi.
3. German tillari to'g'risida umumiy ma'lumot.
4. Qadimgi german tillari, ularning tasnifi. Yozma yodgorliklar.
5. Qadimgi german tillarining fonetik sistemasi.
6. Ingliz tili tarixini davrlarga bo'lish.

Tayanch iboralar: *Fonetika, grammatik tuzilish, got tili, Grimm qonuni, Runik yozuv, to'liq qo'shimchalar davri, qo'shimchalarning muvozanatlashuv davri, qo'shimchalarning yo'qolgan davri.*

Ingliz tili tarixining nazariy fan sifatidagi predmeti uning eng qadimgi davridan bizning davrimizgacha mavjudligi, til rivojlanishining sistematik mohiyati hisoblanadi.

Til tarixini o'rganish hozirgi zamon ingliz tilini chuqur anglab yetishga, uning turli faktorlar bilan aloqadorligi, murakkab rivojlanish jarayonining natijasi va boshqa tillar o'rtasidagi o'rnini tushunish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga ingliz tili tarixi fani Angliya va ingliz adabiyoti tarixini o'rganishda ko'makchi fan sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ingliz tili tarixi kursining maqsad va vazifalari faqatgina beriladigan faktlarni keltirish emas, balki til rivojlanishi qonuniyatlarini aniqlash hamdir.

Tildagi o'zgarishlar xalqning nutq faoliyatini anglab tushunish va hayotning turli taraflari bilan aloqadorlikda bo'lishini bilish hisoblanadi. Shu bilan birga, bu aloqadorlikning o'ta murakkab va turli- tumanlilik, hamda tilning turli sharoitlarda turlicha namoyon bo'lishini hisobga olish kerak. Shuningdek, til taraqqiyoti rivojlanish jarayonining bir maromda emasligi va bu jarayonning rivojlanish kuchini aniqlash hamma holatlarda ham yengil emasligini tan olish kerak. Misol uchun oladigan bo'lsak, lug'at tarkibining rivojlanishi qiyosan fonetik tizimdan yengilroq hisoblanadi. Fonetik tizim ancha qiyin va muammoli masalalarga ega. Bu sohada hal etilmagan masalalar hali yetarlicha hisoblanadi.

Hozirgi zamon ingliz tilini o'rganganimizda uning lug'at tarkibida fonetik, grammatik kabi ko'pgina muammolarga duch kelishimiz mumkin va shu hodisalarni tushunish biz uchun qiyinchilik tug'diradi.

Masalan: 1) Nima uchun **right, fight, thought** va shunga o'xshash so'zlarda hech qanaqa tovushlarni ifodalamaydigan harflar yoziladi; 2) Nima uchun "ea" harf birikmasi turli tovushlarni ifodalaydi: **speak, bear, heard, heart**; 3) Nima uchun [ʌ] tovushi **sun, butter, cut** so'zlarida 'u' harfi bilan, **love, son, brother** so'zlarida 'o' harfi bilan ifodalanadi?. Yoki fe'llarni olaylik, ko'pgina fe'llarning o'zagi ko'plik sonda o'zgaradi. Shunga o'xshash hodisalarni grammatik tuzilishda ham uchratishimiz mumkin.

1) Nima uchun **'sheep', 'deer'** otlari birlikda ham, ko'plikda ham bir xil shaklda yoziladi?

2) Nima uchun **'man', 'foot', 'goose'** otlarining ko'plik shaklini yasalishi umumiy qoidaga bo'ysunmasdan o'zakdagi unli o'zgarishi orqali ko'plik shakli yasaladi? Shunga o'xshash ko'plab misollarni keltirish mumkin. Bu muammolarni faqatgina ingliz tili tarixini bilgandan keyingina tushunish mumkin.

Ingliz tili tarixining erta davrlarida, ingliz tili fe'l sistemasining ancha kambag'alligi ko'zga tashlanadi, ya'ni darak maylining faqatgina ikkita zamon shakli mavjud bo'lgan, bular hozirgi va o'tgan zamon shakllari, hozirgi zamon ingliz tilidagi **The Present Indefinite Tense** va **The Past Indefinite Tense** shakllarining prototipi hisoblanadi. Ammo vaqt o'tishi bilan ingliz fe'l sistemasi yangi analitik shakllar bilan **The Future Indefinite Tense** hamda **The Continious, The Perfect** shakllari bilan boyidi. Bu shakllarning rivojlanishi umuman boshqa fe'l sistemasiga o'zgardi, ya'ni, yangi shakl va semantik oppozitsiyalarni oldi. Ushbu analitik shakllarning hosil bo'lishi, oldingi ikkala-hozirgi va o'tgan zamon shakllariga ham ta'sir etdi. Ular bildirgan (davomiylik, bo'lajak) harakat ma'nolari yangi analitik shakllar bilan ifodalana boshlandi.

XVI-XVII asrlarga kelib fonetik sistemada ham bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, sonar [r] tovushi [o] ga o'zgarishi natijasida yangi [ia], [ee], [uz] diftonglari paydo bo'lib, unlilar sistemasidagi sezilarli o'zgarishlarga olib keldi:

sage, beer, dear, poor kabi.

Ma'lumki, tildagi o'zgarishlar sekinlik bilan amalga oshadi va bu jarayonning borishini kishi sezmaydi. Xususan ingliz tili sistemasidagi o'zgarishlarni kuzatadigan bo'lsak, bu turli davrlarlar turlicha tus olgan. Ba'zi tarixiy davrlarda ingliz tilidagi o'zgarishlarning sur'ati tezlashgan, ba'zi davrlarda esa sekinlashgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, tilni bilish uchun uning tarixini hamda tarixiy jarayonlarning rivojlanishi bilan bog'liqligini bilish kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Ingliz tili tarixi kursi ilmiy fan sifatida, ushbu tilning eng qadimgi davri, rivojlanishi va hozirgi kungacha bo'lgan tarixini sistemalashtirilgan holda o'rganadi. Til tarixini o'rganish, hozirgi zamon ingliz tilini chuqurroq tushunishga, uning davrlar mobaynida turli omillar bilan o'zaro aloqada bo'lganligi va boshqa tillar orasidagi o'rnini aniqlashga, anglashga yordam beradi.

Ushbu kursning vazifalaridan yana biri tilning rivojlanishini, uning fonetik, grammatik va leksik qatlamlarining o'zgarishini o'rganish va ushbu tilning qonuniy taraqqiyotini aniqlashdir. Ingliz tili tarixi boshqa nazariy va amaliy fanlar bilan ham bog'liq hisoblanadi. U ingliz xalqi hayotidagi aniq tarixiy sharoitda ingliz tilining rivojlanishi bilan ham aloqador bo'lganligi uchun Angliya tarixiga suyanadi. Ingliz tili tarixi hozirgi zamon ingliz tili o'rganadigan nazariy fonetika, nazariy grammatika, leksikologiya fanlarini bilish bilan bog'liqdir. Bu fonetik, leksik, grammatik hodisalarning rivojlanish jarayonini ko'rsatadi va hozirgi zamon ingliz tili sistemasining rivojlanish yo'lini belgilaydi. Til tarixi hozirgi zamon til sistemasidagi fonetik, leksik, grammatik hodisalarning kelib chiqishi, rivojlanishini aniqlaydi, bundan tashqari mazkur kursda shunga o'xshash ko'pgina masalalar ko'rib chiqiladi.

German tillari to'g'risida umumiy ma'lumot, german tillarining tasnifi va ularga oid yozma yodgorliklar

Umuman qadimgi germanlar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar antik grek va Rim yozuvchilarining dalolatlariga asoslangan. Eng avvalgi mualliflardan biri

eramizdan avvalgi IV asrda yashagan grek sayohatchisi va astronomi Pifey (yoki Piteas, Pytheas) bo'lib, u o'z kemasida Evropaning g'arbiy qirg'oq'lari va Lamansh bo'g'oziga sayohat qilgan. Lekin uning ma'lumotlari saqlanmagan. Faqatgina geograf Strabon (Strabo) (eramizdan avvalgi 63-eramizning 20-yillari) tomonidan keltirilgan parchalar saqlanib qolingan.

To'laroq ma'lumotni Rim hukmdori, sarkardasi va yozuvchi Yuliy Sezar (eramizdan avvalgi 100-44 yy.) qoldirgan. U o'zining "Galllar bilan urush xotiralari" asarini Reyn daryosi bo'ylarida urushgan german qabilalariga bag'ishlagan. Sezarning qimmatbaho ma'lumotlaridan biri, germanlarning qabila bo'lib yashaganliklari to'g'risidagisi hisoblanadi. Sezarning ma'lumotlaridan germanlar ko'chmanchi hayot tarzini kechirganliklarini bilib olamiz.

Sezardan so'ng qariyb 100 yildan keyin Katta Pliniy o'zining «Tabiiy tarix» (Naturalis Historia) asarida german qabilalarining quyidagi tasnifini keltiradi:

1. Vindillar (Ularga got va burgundlar kirgan). Ular german qabilalariga tegishli hududning sharqida yashashgan.

2. Ingevonlar (yoki ingveonlar). Ular germanlar hududining shimoli-g'arbida, Shimoliy dengiz qirg'oqlarida va hozirgi Gollandiya hududlarida yashashgan. Ingevonlarga Britaniyani bosib olgan qabilalar kirgan.

3. Istevonlar (yoki iskevonlar). Ular Germanlarga tegishli hududning g'arbiy hududlaridan Reyn daryosi qirg'oqlarida yashashgan. Istevonlarga franklar mansub bo'lib, ular oqibatda Galliya hududini egallashgan.

4. Germionlar (yoki germinonlar). Ular german qabilalari hududining janubida, hozirgi janubiy Germaniya hududida yashashgan.

5. Pevkinlar va bastarnlar, hozirgi Ruminiya hududida yashashgan.

6. Gillevionlar, Skandinaviya hududida yashashgan.

Ingliz tili german tillar guruhiga mansub bo'lib, o'z navbatida hind-yevropa tillari deb ataladigan kattaroq oilaga kiradi. Hind-yevropa tillariga german tillaridan tashqari slavyan, roman, grek, eron, hind va boshqa bir qancha tillar guruhlari kiradi.

Hozirgi zamon german tillari ham ikkita kichik guruhga bo'linadi; a) G'arbiy

german tillari; b) Shimoliy german tillari.

G'arbiy german tillariga ingliz, nemis, golland, friz tillari kirsa, shimoliy german tillariga shved, norveg, island, daniya tillari kiradi.

German tillarining yozma yodgorliklarini o'rganib chiqilishi natijasida quyidagi uch kichik guruhga bo'linadi; 1) Sharqiy german tillari (got tili); 2) Shimoliy german tillari (skandinav tillari); 3) G'arbiy german tillari.

German tillarining yozuvi va yozma yodgorliklari

Sharqiy german tillariga Burgund, Vandal, Got tillari kirgan bo'lib, faqatgina Got tilida yozilgan "*Kumush noma*" (*Codex Argenteus*) yozma yodgorligi bo'lib, bu injilning lotin tilidan got tiliga tarjimasi hisoblanadi. Bu yozuv to'q qizil pergamentga got alfavitida kumush harflar bilan yozilgan. Injilning ushbu tarjimasi va got alfavitining yaratilishi got yepiskopi Vulfilaga tegishli deb hisoblanadi. Bu yozma yodgorlik IV asrga tegishli bo'lib, 187 varaqdan iborat bo'lgan va hozirgi kunda Shvetsiyaning Uppsala universiteti kutubxonasida saqlanmoqda.

Shimoliy german tillariga skandinav tillari kirgan bo'lib, uni runik yozuvlari tili deb ham atashadi. Ushbu tilga tegishli yozma yodgorliklar eramizning II-IX asrlariga mansub bo'lib, 150 ga yaqin yozuvdan iborat. Qadimgi shved tiliga tegishli runik alfavitidagi yozma yodgorliklar IX-asrga borib taqaladi. Shulardan Vesteretlandda (Shvetsiya) topilgan va hozirgi kungacha ma'lum bo'lgan runik yozuvining eng ko'pi 750 dan ortiq yozuvga ega bo'lgan tosh hisoblanadi.

Qadimgi daniya tili yodgorliklaridagi runik yozuvi IX asr boshlariga mansub bo'lib, 400 ga yaqin yozma yodgorliklari ma'lum. Qadimgi island tilida ko'proq badiiy adabiyotlar saqlangan. Ushbu yodgorliklar runik yozuvda emas, balki lotin alfavitida bo'lib, she'rlar, epik qo'shiqlar, sagalardan iborat bo'lgan.

G'arbiy german tillariga, qadimgi yuqori nemis, quyi nemis, frank, sakson, friz tillari kirgan, yuqori nemis tili yozma yodgorliklari VIII asrga borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklarni asosan lotin matnlaridagi lug'atlar, lotin matnlarining nemis tiliga tarjimalari, shuningdek X-XI asrlarda qilingan klassik, diniy tarjimalar, "Musrilli" poemasi (IX asr), "Lyudovik haqida qo'shiq" (IX asrda

fransuzlar ustidan g'alaba qozongan Lyudovik III ga bag'ishlangan). "Merzeburg jodusi" (X asr) va boshqalar kiradi.

Quyida nemis tiliga 6000 she'rdan iborat "Xeliand" poemasi mansub bo'lib, bu Injilning she'riy qayta tarjimai hisoblanadi. Frank tili ko'pgina shevalardan iborat bo'lgan:

1) VIII asrda ispan yepiskopi Isidor tomonidan yozilgan diniy traktat; 2) V asrda Titsian tomonidan tuzilgan injilning IX-asrda sharqiy frank shevasiga tarjimai; 3) IX asrda monax Otrid tomonidan janubiy reynfrank shevasida yozilgan injil she'rlari; 4) IX asrda quyi frank shevasida yozilgan psalmlar tarjimai kabi yodgorliklarni sanab o'tishimiz mumkin. Qadimgi friz tili shimoliy dengiz qirg'oqlarida tarqalgan bo'lib, XIII-asrdagi yodgorliklari bilan malumbo'lib qadimgi friz tili qadimgi ingliz tiliga juda yaqin bo'lgan.

German tillari fonetikasi

Qadimgi german tillaridagi unlilar sistemasi qisqa va cho'ziq unli tovushlardan tashkil topgan. Qisqa va cho'ziq unlilarning farqlanishi German tillari guruhining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Qisqa va cho'ziq unlilar turlicha o'zgargan, cho'ziq unlilar diftonglarga yaqinlashgan bo'lsa, qisqa unlilar ochiq unlilarga o'tgan. Qadimgi hind-yevropa [o] tovushi german tillarida ochiq [a] ga o'zgargan, qadimgi hind-yevropa tillaridagi [a:] cho'ziq unlisi [o:] ga o'zgargan.

Qad. H-E	Qad. German	German bo'lmagan	German tillari	
			Qadimgi	Hozirgi zamon tillari
o	a	L nox, Ir nochd. Kechqurun qila olmoq	Gt naht, OHG naht Gt magan, OE mačan OE mōdor Gt brothar, OE btothor	Sw nat, G nacht Sw ma, NE may SW moder, NE mother SW broder, NE brother

Qad. H-E	Qad. German	German bo'lmagan	German tillari	
			Qadimgi	Zamonaviy
E	Ei	L vetnus. R shamol L edere – yemoq L sunus – o'g'il Celt hurnan	Gt winds, OE wind OHG izit, OE etan O leel sunr, OE sunu O leel, OE horn	Sw vind, Ne wind G essen. Ne eat Sw son. Ne son Sw horn. NE horn

Ushbu o'zgarishlardan so'ng eng qadimgi german tillaridagi unlilar sistemasi quyidagicha ko'rinish oldi:

Qisqa unlilar: i, e, a, o, u

Cho'ziq unlilar: i:, e:, a:, o:, u:

German tillarida va shuningdek boshqa hind-evropa tillaridagi ba'zi undosh tovushlarni qiyoslar ekanmiz, ulardagi ayrim o'xshashliklarni kuzatamiz. Bu o'xshashliklar XIX-asrning boshlarida daniyalik olim Rasmus Rask va keyinchalik nemis olimi Yakob Grimm tomonidan o'rganib chiqilgan (Grimm qonuni shundan kelib chiqqan). Grimm tomonidan "akt" deb atalgan undoshlarning birinchi siljish qonuni uch bosqichdan iborat bo'lgan.

1. Hind-evropa tillaridagi jarangli portlovchi (b, d, g) german tillaridagi jarangsiz portlovchi (p, t, k) ga mos bo'lgan.

2. Hind-evropa tillaridagi jarangsiz portlovchi (p, t, k) german tillaridagi jarangsiz sirg'aluvchi (f, th, h) ga mos bo'lgan.

3. Hind-evropa tillaridagi jarangli portlovchi nafas tovushi (bh, dh, gh) german tillaridagi jarangli portlovchi (b, d, g) ga mos bo'lgan.

Hind- Yevropa	German	Hind-Yevropa	German	German
	P > f	lot. Pater	ing. father	got.fadar
	t > þ	lot. trēs	ing.three	got.þreis

k > h	lot.noctem	ing.nahts	nem.Nacht
b > p			
d > t	lot.duo	ing.two	got.twai
g > k	lot.jugum	got.juk	ing.yoke
bh > b	sansk.bhrātar	ing.brōþar	ing.
dh > d	sansk.madhu	ing.medu	
gh > g	lot..hostis	got. gasts	

Demak undoshlarning birinchi siljishi qonunida german undoshlari hind-yevropa tillaridan ajralib chiqishi bilan bog'liq.

Verner qonuni

Daniyalik lingvist Karl Verner (1877) undoshlarning birinchi siljishi qonuniga quyidagicha qo'shimchalar kiritgan. t>[th] ga o'tishidan tashqari qadimgi ingliz tilida [t] ga ham o'tgan.

Lot. Frater > q.ing. brothor

Lot. Mater > q.ing.mothor

Shuningdek [t] [θ]tovushini emas, balki [d] tovushini ifodalashi ham aniqlagan: Pāter > fæder

K.Vernerning aniqlik kiritishicha, ushbu farqlar bo'g'indagi unliga urg'u berilsa, birinchi aktdagi undoshlar siljishi qonuni asosida jarangsiz sirg'aluvchi [f], [θ,] [x], [s] > [v], [θ] , [u], [z] ga o'tgan.

German tillari grammatik tuzilishining umumiy xususiyatlari

Qadimgi german tillari tarixi, shu tillarning asosi bo'lgan va bizgacha saqlanib kelingan yozma yodgorliklarning ko'p qismini tashkil qilgan Got tiliga taqqoslab o'rganiladi. Qadimgi german tillari boshqa hind-yevropa tillari qatori sintetik-grammatik strukturaga ega bo'lgan, ya'ni gap bo'laklar o'rtasidagi aloqa so'zlarning joylashishi emas, balki, so'zlarning shakli bilan bog'liq bo'lgan.

German tillaridagi ot tuzilishi boshqa hind-yevropa tillaridagi kabi uch elementdan iborat bo'lgan: 1) o'zak 2) negiz yasovchi qo'shimcha 3) kelishik

qo'shimchasi. Ma'lumki, o'zak otning leksik ma'nosini bildiradi, kelishik qo'shimchasi esa otning grammatik funksiyasini ifodalaydi. Ammo negiz yasovchi qo'shimchani ma'nosini aniqlash murakkablik tug'diradi va bu haqda aniq isbot keltirish qiyin. Jumladan, got tilidagi bir necha tur otlarning jo'nalish kelishik ko'plik shaklida negiz yasovchi suffikslar ko'zga tashlanadi: qiyoslab ko'ramiz: **dagam** (kunduz kuni), **gibom** (tekin), **gastim** (mehmonlarga), **sunum** (o'g'illariga). Keltirilgan so'zlar uch elementdan iborat, **dag, gib, gast, sun** o'zak va "a. o. i. u" negiz yasovchi qo'shimcha bo'lsa **m** kelishik fleksiya (tovush, grammatik o'zgarishlar)si hisoblanadi. Shuningdek, ushbu holat tushum kelishigida ham ko'zga tashlanadi. Masalan: **dagans, gibos, gaslins, stunts**. Ammo bosh kelishikda negiz yasovchi qo'shimchalar qatnashmaydi: **dags, giba, gasts**, lekin **sunus** oti negiz yasovchi qo'shimcha olmaydi.

Shunday qilib, qadimgi German tillaridagi "a, o, i, u" negiz yasovchi unlilar qo'shilishi orqali turlanadigan otlarni kuchli turlanishli otlar deb atash qabul qilingan. Negizi "n (s, r)" undosh bilan qatnashgan otlarni kuchsiz turlanish deb atash qabul qilingan. Qadimgi german tillarida ma'lum guruh otlar mavjud bo'lgan bo'lib, ular kelishiklarda o'zak o'zgarishi orqali turlangan. Bu kabi otlar o'zak-negizli turlanish deb nom olgan.

Sifat

Qadimgi German tillaridagi sifatlarning turlanishi ikkiga ajratiladi:

1. Har bir sifat otlardagidek kuchli va kuchsiz turlanishga ega bo'lgan. Agarda sifat oldidan ko'rsatish olmoshi yoki aniq artikl kelsa, kuchsiz turlanish shaklini olgan, qolgan holatlarda kuchli turlanish shaklida qo'llanilgan.

2. Ba'zan sifatlarning kuchli turlanishi otlarning kuchli turlanishiga mos tushmagan. Bu holatda bazi kelishiklar olmoshlarning turlanishiga mos kelgan, ya'ni sifatlarning kuchli turlanishi olmoshlar bilan birikib kelishiga bog'liq bo'lgan.

Fe'l

Qadimgi german tillarining fe'l tuzilishi turli elementlardan iborat bo'lgan. Fe'llarning ko'p qismini kuchli fe'llar tashkil qilgan. Kuchli fe'llarning o'tgan

zamon va sifatdosh II shakllari ablaut (unlilar almashinuvi) orqali hosil bo'lgan. Kuchsiz fe'llarning ushbu shakllari til oldi “-d, -t” dental suffikslari orqali hosil bo'lgan.

Kuchli fe'llar

Qadimgi German tillarida zamon emas, balki fe'lning aspekt (vid) shakli harakat oqimi xususiyatlarining zamon (vaqt) jarayonida bir-biridan farq qilishi muhim o'rin tutgan. Aspekt asosan uchga bo'lingan: davomiy, umumiy, natijaviylik. Davomiy aspekt harakatning o'z oqimidalgini ifodalagan, umumiy aspekt esa tugallanganlik yoki tugal nuqtaga intilganlikni bildirgan, rezultativ yoki natijaviy aspekt esa natijaga olib kelgan tugallanganlikni bildirgan. Shu uchchala tusdan german tillaridagi kuchli fe'llarning zamon shakllari hosil bo'lgan. Davomli aspektdan hozirgi zamon, umumiy aspektdan o'tgan zamon hosil bo'lgan. Natijaviy aspektni bildirgan kuchli fe'llar o'tgan zamon va preterito-prezent guruhida esa hozirgi zamonga o'zgargan.

German tillaridagi kuchli fe'llar to'rt shaklga ega bo'lgan: 1) infinitiv, 2) o'tgan zamon birlik, 3) o'tgan zamon ko'plik, 4) sifatdosh II.

Barcha kuchli fe'llar unlilarning almashinuviga qarab 7 sinfga ajratilgan. Quyida got tilidagi kuchli fe'llarning tuslanishi keltirilgan.

	Infinitiv	O'tgan zamon birlik	O'tgan zamon ko'plik	Sifatdosh II	Tarjimasi
I	reisan (i:)	Rais (ai)	Rasum (i)	Risans (i)	turmoq
II	kiusan (lu)	Kaus (au)	Kusum (u)	Kusans (u)	tanlamoq
III	Bindan (i)	Band (a)	Bundum (u)	Bundans (u)	bog'lamoq
IV	Stilan (i0)	Stal (a)	Stēlum (ē)	Stulans (u)	bo'yamoq
V	Giban (i)	Gaf (a)	Gēbum (ē)	Gibans (i)	bermoq
VI	Faran (a)	Fōr (ō)	Fōrum (ō)	Farans (a)	bormoq
VII	a) haitan b) lētan	haihait lailōt	haihaitum lailōtum	haitans lētans	chaqirmoq qoldirmoq

Got tili 7-sinf fe'llari ikki xil yo'l bilan tuslangan: a) unlilar almashinuvi ya'ni

ablaut yo'q, b) cho'ziq unlilardagi almashinuv natijasida hosil bo'lgan.

Kuchsiz fe'llar

Kuchsiz fe'llar, o'tgan zamon va sifatdosh ikki shakliga qo'shimchalar qo'shish orqali yasalgan. Got tilidan tashqari barcha german tillarida kuchsiz fe'llarning negiz yasovchi qo'shimchalarida bir-biridan farq qiladigan uchta sinfi mavjud bo'lgan. Got tilida esa ushbu uchta sinfdan tashqari yana qo'shimcha bir sinf bor bo'lgan.

	Infinitiv	O'tgan zamon birlik	O'tgan zamon ko'plik	Sifatdosh II	Tarjimasi
I	hausjan	hausida	hasidēdum	hausiþs	eshitmoq
II	salbōn	salbōda	solbōdēdum	salbōþs	surtmoq
III	haban	hababida	habaidēdum	habaiþs	bor bo'lmoq

Misollardan ko'rinib turibdiki, birinchi sinfdagi negiz yasovchi qo'shimcha - **j** -, ikkinchi sinfdagi -**o**-, uchinchi sinfdagi -**ai**-, va to'rtinchi sinfdagi -**(n)ō**.

Ingliz tilining kelib chiqish tarixi

Ingliz tili deganimizda biz V asrning o'rtalarida Britaniyaga hujum qila boshlagan german qabilalarining tilini tushunishimiz kerak. German qabilalari mahalliy kelt xalqi yerlarini bosib olib, ularni mamlakat shimoli va g'arb tomonlariga siqib chiqaradilar va Britaniya hududining ko'p qismini egallaydilar. Britaniya hududiga kelgan ushbu German qabilalari shevalari asosida ingliz tili rivojlanadi.

Ko'p asrlar mobaynida ingliz tilida har bir tildagi kabi, ancha o'zgarishlar yuz berdi. Ingliz xalqi tarixining ba'zi voqealari shu jarayonlarni tezlashtiradi. Shunga asoslanib ingliz tili tarixini uchta davrga bo'lib o'rganamiz:



1. Qadimgi ingliz tili davri.

a) Eng Qadimgi davr - bu davr eramizning birinchi asridan VII-VIII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda ingliz xalqining asosi bo'lgan qadimgi ingliz qabilalarining mavjud bo'lganligi bilan izohlanadi. Ushbu qabilalarni bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklari bilan aniqlashimiz mumkin.

b) Qadimgi Ingliz (ingliz-sakson davri) - bu davr VII-IX asrlarni o'z ichiga oladi. Bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu davrda ingliz tili o'zining sifatli belgilariga ega bo'la boshlagan.

2. O'rta ingliz davri - XI-XV asrlarni o'z ichiga oladi.

3. Yangi ingliz tili davri - bu davr XV-asrdan hozirgi kungacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olib, o'z navbatida ikki davrga bo'linadi; a) boshlang'ich yangi ingliz tili davri - ingliz milliy tilining til normalarining hosil bo'lishi; b) so'nggi yangi ingliz tili davri - ingliz tili til normalarining hosil bo'lgan davri.

Bu davrlarga taxminan quyidagi xronologik bosqichlar to'g'ri keladi. Qadimgi ingliz (yoki ingliz-sakson) V asrning yarmidan, ya'ni German qabilalarining ko'chishidan to 1100-yilgacha. O'rta ingliz davri 1100 yildan to

1500 yilgacha va yangi ingliz davri 1500 dan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yangi ingliz tili davri 1500 yildan hozirgi davrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, mazkur davr ikkiga bo'linadi. Birinchisi erta-yangi ingliz tili davri bo'lib, o'z ichiga 1500-1660 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr Styuartlarning qirollik dinastiyasi qaytadan tiklangan davrgacha bo'lgan davrdir.

Qadimgi ingliz va o'rta ingliz davrlarni ajratadigan raqam, ya'ni 1066 yilgi tarixiy hodisa bilan bog'liqdir. O'rta va yangi ingliz davrlarining o'rtasi esa feodalizmning yo'q bo'lishi va kapitalizmning boshlanishi, ya'ni Angliyaning normanlar tomonidan bosib olinishi davriga to'g'ri keladi. O'rta ingliz va yangi ingliz tili davrlarining o'rtasi esa feodalizmning yo'q bo'lishi va Tyudorlarning absolyut monarxiyasining paydo bo'lishiga bog'liq bo'ldi. Biz hozir ingliz tili tarixini davrlarga tarixiy prinsiplarga asoslanib bo'ldik. Tarixiy prinsiplardan tashqari fonetik morfologik prinsiplar ham mavjuddir.

Ingliz tilshunosi Genri Suit bu davrlarga quyidagicha xarakteristika beradi.

1. Qadimgi ingliz tili davri - **the period of full endings** (to'liq qo'shimchalar davri). Bu davrda urg'usiz bo'g'inlarda hamma unli tovushlar turishi mumkin edi. Masalan: **sunu, tellan**;

2. O'rta ingliz davri - **the period of levelled endings** (muvozanatga keltirilgan qo'shimchalar davri).

Hamma urg'usiz unlilar [ə] tovushiga o'tgan edi. Yozilishida esa "e" harfi orqali ifoda etiladi: **sune, tellen**.

3. Yangi ingliz tili davri - **the period of lost endings** (qo'shimchalarning yo'qolgan davri). Qo'shimchalardagi kuchsiz unli tovush yo'qoladi: **son, tell**.

Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi gaplarni o'qing, ularda ishlatilgan ot, fe'l va sifatlarga e'tibor bering. Ularning semantikasi va kombinatorikasiga e'tibor qarating.

A) His *folc flah* in to scipe and fro thean londe **iwenden** (Brut. 9346) - Uning xalqi (to'dasi) shoshilganча kemaga qarab ketdi va u yerdan suzib ketdi.

B) That *folc stod* al in gret wonder: and **weren** in grete doute, and **bispeken**

to othur (Legendary, p. 19) - U xalq (to'da, olomon) qo'rqinch va hayratda bir-biriga murojaat qilib turardi.

C) That *folc cam* reke aboute this hous: and **founden** that ... (ibid., p. 183) - U xalq (to'da) uyga keldi-da, u yerda topgan narsasini bo'lishib oldi.

Ingliz tili tarixining o'rta davri mobaynida qo'llanilib kelingan turlicha shakllangan kesimlar asta-sekin muomaladan chiqib ketdi va ikkinchi kesim oldidan ko'plik shaklidagi olmosh bilan ifodalangan egani ishlatish lisoniy odat tusiga kirdi.

1. And anon al *the company_seyng*e Jesus was astoneyed and **thei** dreden (Mk., IX, 44) - Va o'sha payt olomon Iso masihni ko'rgach hayratlandi va qo'rqib ketdi.

2. Muchel west ha murthe that *folc macode* and heo **god_thonceden** (Brut., 1795) - Xalq ko'rsatgan shodlik juda yuksak edi va odamlar xudoga shukronalar aytdi.

3. Al thin *hird is* chrud mid bwite ciclatune and ealle **heo** beoth ikruned mid guldene krune (Zup., p. 114) - Uning barcha ayonlari oq kiyimga burkangan va ularning barchasining boshida oltin toj bor edi.

4. And *the peple was* abidinge Zacharie, and **they** wondriden (L.I., p. 21) - Xalq Zaxariyani kutdi va ular jo'nab ketishdi.

Nazorat uchun savollar

1. Ingliz tili tarixining o'rganishning asosiy maqsadi nimada?
2. Undoshlarning siljish qonuni necha bosqichdan iborat edi?
3. Undoshlarning siljish qonuni kimlar tomonidan ishlab chiqilgan?
4. Ingliz tili tarixi necha davrga bo'lib o'rganiladi?
5. Ingliz tili tarixini davrlarga bo'lish nimalarga asoslanadi?

Ingliz tili tarixining boshlanishi haqida umumiy tarixiy ocherk

1. Qadimgi ingliz davrining tarixiy ocherki. Angliyaning Rimliklar tomonidan bosib olinishi.

2. Britaniyada Rimliklar hukmdorligi.

3. German qabilalarining Britaniya hududiga ko'chishi va ingliz - sakson davlatining vujudga kelishi.

4. Skandinaviyaliklarning ingliz - saksonlar bilan kurashi.

5. Qadimgi davr ingliz tili yozma yodgorliklari va shevalari, yozuvi.

Tayanch iboralar: Runik yozuv, yutlar, angllar, geptarxiya, nortumbriya, skandinavlar.

Eramizgacha bo'lgan 55 yilda Rimliklar Yuliy Sezar boshchiligida birinchi marotaba Britaniyaga bostirib kirdilar. Ammo Sezarning birinchi hujumi juda qisqa muddatli edi, chunki uning floti bo'ron vaqtida juda katta zararlanadi. Sezarning ikkinchi hujumi eramizdan oldingi 54-yilda bo'lib o'tdi. Bu bosqin davrida Sezar Temza daryosigacha yetgan edi, lekin bu safar ham Rimliklarning Britaniyaga hujumining davomiyligi qisqa bo'lgan edi.

Britaniyaning Rimliklar tomonidan haqiqiy bosib olinishi Rim imperatori Klavdiy vaqtida 43 yilda boshlangan edi, hamda ikki asrdan ko'proq vaqt davom etdi. Bu zabt qilish natijasida Britaniyaning asosiy qismi Rimliklarning qo'lga o'tdi.

Rimliklar davrida juda katta ko'priklar va vallar (devorlar) qurildi. Adrian devori ko'prigi 120 yilda va yangi yerlarni bosib olgandan so'ng 140-143 yillar orasida Antoniy devori qurildi.

Rim imperiyasi davrida keltlar tomonidan ko'pgina qo'zg'olonlar bo'lib turdi. Rim hokimiyatiga bo'lgan birinchi katta zarba Kaledoniyaliklar tomonidan 196 yilda berildi. 330 yildan keyin esa britaniyaliklarning hujumi yanada kuchaydi.

367-368 yillarda Rimliklarga aynan bir vaqtda shimoldan Piktlar, Irlandiyadan skottlar, hamda sakslar qirg'oq tarafdan hujum qildilar. Buning natijasida Rim hokimiyatiga, xalqi, madaniyatiga juda katta zarar yetgan edi. Lekin Feodosiy hokimiyatga kelgach Rim hokimiyati yana kuchaydi, ammo 383 yilda Magnus Maksim Rim armiyasining asosiy qismini Britaniyadan olib chiqdi.

Rim hokimiyati Britaniya hududida 400 yilga yaqin davom etdi. Bu davr ichida ko'pgina yangi shaharlar, yo'llar qurilgan edi. Bu qurilishlar, ayniqsa yo'l

qurilishlari Britaniyaning tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, chunki keltlar ko'pincha faqat tepaliklarda yashab o'sha yerlarda istehkomlar qurgan edilar. Shuni aytish kerakki, garchi keltlar shaharlar qurgan bo'lsalarda, ularning soni juda kam edi.

O'sha davrda lotin tili armiyada, shaharlarda, hamda hukumat muassasalarida keng tarqalgan edi. Ammo Rim hokimiyati ag'darilgandan so'ng ushbu til ham esdan chiqa boshladi.

Rimliklar o'zlari bilan xristian dinini ham olib kelgan edi, ammo xristian obidalari juda kam edi. Hozirgacha Britaniyada xristian cherkovlarining ozginasi saqlanib qolgan.

Hozir ham dalalarda ko'p shahar xarobalarini ko'rish mumkin. Hozirgi davrda ham ko'pgina shaharlar Rim qishloqlarining o'rnida turibdi.

Shaharlarning ko'plari qisman Rimcha nomlar bilan nomlangan bo'lib, ba'zilari haligacha saqlanib qolgan; masalan, Portchester (Portus Adurni), London (Londinim), Linkoln (Lind cylin) va boshqalar.

Bularning qammasidan shu narsa kelib chiqadiki, mahalliy xalqni, ayniqsa uning yuqori tabaqalarini Rimlashtirish jarayoni jadallik bilan olib borilgan. Rim askarlarining 407 yilda to'satdan chaqirib olinganidan so'ng, shu jarayon pasaya boshladi.

2. German qabilalarining ko'chishi

Ko'p o'tmay Rimliklarning ketishi bilan beshinchi asrning yarmida Britaniyaga Germanlarning hujumi boshlandi. Ular yutlar, sakslar hamda angllar edilar. Keyinchalik shu qabilalardan ingliz millati tashkil topdi.

Avvalo bu qabilalar qit'ada yashar edilar. Sakslar Elba daryosining pastki oqimida, hozirgi Shvetsiya qududida va janubiy Daniyada – angllar hamda Reyn daryosining pastki oqimida esa yutlar yashardi. Ba'zi mualliflar yutlarni Daniyaning shimolida bo'lgan Yutlandiyadan kelib chiqqan deyishadi, ammo bu noto'g'ri qarashdir. Yuqorida aytib o'tilgan qabilalar bir-biriga yaqin bo'lgan dialektlarda gaplashishar edilar. Ular hali ijtimoiy rivojlanishning juda past bosqichida turgan bo'lib, tipik urug' jamoalardan iborat edilar.

Germanlarning ko'chishi haqidagi ma'lumotlarni har-xil tarixiy manbalardan topish mumkin. Bundan tashqari, german qabilalarining ko'chishi haqidagi malumotni Britaniyalik cherkov yozuvchisi Gildas asarlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, Gildas quyidagicha yozgan edi:

“Brittlar Rim qo'shini boshlig'i Aetsiyga yordam so'rab murojaat qildilar. Keyinchalik brittlarning shohi mamlakatni piktlardan himoya qilish uchun sakslardan yordam so'radi. Ammo sakslar xaloskorlardan ko'ra bosqinchilarga aylandilar. Sakslar asta-sekin Britaniyani bosib oldilar.”

Boshqa bir cherkov yozuvchisi Bedaning yozishicha, sakslar birinchi marotaba Britaniyaga 449-yilda kelishgan. Ushbu sana tarixiy asarlarda ham uchraydi.

Bedaning yozishiga qaraganda, germanlarga yordam uchun murojaat qilgan Vortirgen edi. U brittlarning shohi edi, Germanlarning yo'l boshchilari aka-uka Xengist va Xorsa edilar.

German qabilalarining qo'shilishi balki shu yilda boshlangan bo'lishi mumkin. Bu qo'shilish 150 yildan oshiq davom etdi. Brittlar German qabilalari bosqiniga qattiq qarshilik ko'rsatishgan edilar. Ularning rahbari Artur haqida juda ko'pgina afsonalar yaratilgan.

Birinchi bo'lib Britaniyaga yut qabilalari kelgan edi. Ular V asr yarmida Uayt orolini, Kent yarim orolini, hamda hozirgi Sautgempton degan shahar hududini bir qismini bosib oldi.

Yutlardan keyin ko'p o'tmasdan sakslar kela boshladi, ular mahalliy qabilalarni vayron qilib Temza daryosining shimoli va janubidagi ko'pgina yerlarni bosib oldilar. Oxirgi bo'lib V asrning oxirida Britaniyada angllar paydo bo'lishdi. Ular asta-sekin Hamber daryosining quyilishidan Fyort of Fort qo'ltig'igacha bo'lgan ko'pgina yerlarni bosib oldilar. V asrdagi shu ko'chishdan keyin ingliz tilining tarixi boshlandi. VI asr davomida germanlar va keltlar o'rtasida juda keskin kurashlar bo'lib o'tdi. Bu janglarning natijasida germanlar g'alaba qozondilar.

Keltlar (brittlar) esa faqatgina mamlakatning g'arb va shimoliy g'arb

hududlarida saqlanib qoldilar, Kornuell yarim oroli, Uelsda va Kamberlendda.

VI asrning oxirida Britaniyadagi germanlar bosib olgan yerlarda bir necha qirolliklar paydo bo'ldi. Ularning soni o'zgarib turdi, ammo asr oxirida ularning soni yettitaga etdi. Shuning uchun VII-IX asrlar davrini Angliya tarixida geptarxiya davri deb ataladi. Geptarxiya yetti qirollik demakdir; Deyra, Berrishiya, keyinchalik bu ikkita davlat Nortumbriyaga aylandi, Sharqiy Angliya, Mersiya, Esseks, Uesseks, Susseks, Kent.

VI-VII asr davri urug'doshlik jamiyatidan feodal jamoaga o'tish davri bo'lgan deb ham atash mumkin.


Keltlar va germanlar o'rtasida aloqalar avvaldan juda yomon edi. Germanlar keltlardan nimani ham o'rganar edilar. Keltlarning iqtisodiy munosabatlari germanlarni unchalik ham qiziqitirmas va ularga farq qilmas edi.

Xristianlikni esa germanlar Keltlar tomonidan emas, balki Rim va irland missionerlari tomonidan o'rgangan edilar. Shuning uchun ham qadimgi ingliz tilida juda oz kelt so'zlarini uchratish mumkin edi; ko'pincha bu so'zlar shaharlar, qishloqlar nomi edi.

Ammo keyinchalik anglo-sakslar va keltlararo aloqalar mustahkamlanib bordi. Kelt va anglo-saks shaharlari har-xil ittifoqlarni tashkil etdilar. Rim madaniyatining ta'siri kelt madaniyatiga qaraganda kuchliroq edi, chunki Britaniyada ko'proq Rim madaniyati hamda lotin tili saqlanib qolgan edi. Avvalo anglo-sakslar shaharlarda kuchli edilar. Rimliklar anglo-saks dehqonlarini shahardan chetlatar edi, ammo keyinchalik esa shahar va qishloqlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlandi va shuning uchun qadimgi ingliz tilida ko'pgina lotin tilidagi so'zlarni uchratish mumkin.

Bu so'zlar ko'pincha tovar (buyum-narsa) larni, g'arbiy nomlarni ifoda etgan edi. Masalan, qadimgi ingliz tilidagi **dix**, lotin tilida **discus**-tovoq, qadimgi inglizcha **pipor**, lotincha **piper**-qalampir, qadimgi inglizcha **mipert**-lotincha, **monetu**-tanga va boshqalar.

Qadimgi ingliz tili shevalari va yozma yodgorliklari



Ingliz tilining yaratilishi bilanoq unda asosan uchta til shevasi paydo bo'ldi: Nortumbriyada – Nortumbr dialekti, Mersiyada – Mersiya dialekti, Janubiy Angliyada esa Uesseks yoki g'arbiy sakson dialekti hamda to'rtinchi uncha muhim bo'lmagan Kent dialekti, ya'ni yutlarning tilini ko'rsatish mumkin.

Ko'rsatilgan shevalar ko'p asrlar davomida o'zgara bordi, ammo ularning asosiy va umumiy xususiyatlari saqlanib qoldi. Shuning uchun biz bu dialektlarni umumiy ingliz tilining asosi bo'lib xizmat qiladi deya olamiz.

Qadimgi ingliz tilining eng qadimgi yozma yodgorliklari qadimgi german alfavitida runalar bilan yozilgan edi. Bulardan eng qadimgisi "runa qutichasi" edi. Bu yodgorlik VII asr yarmiga tegishli bo'lib, bu qutichada yozilgan matnlar nortumbr dialektida edi. Ikkinchi bir runik yozuvining yodgorligi "Rutvel xochi" edi. Bu katta tosh xoch bo'lib, Angliya va Shotlandiya chegarasidagi Rutvel (Ruthwell) qishlog'ida turibdi. Rutvel xochi matni Nortumb dialektida yozilgan bo'lib, qadimgi ingliz shoiri Kyunevulfga tegishli bo'lgan diniy she'r runik

yozuvida yozilgan. Shuningdek, Nortumbriya shevasiga tegishli lotin alfavitida yozilgan yodgorliklarga quyidagilar kiradi:

a) "Bedaning o'limidan oldingi qo'shig'i" poemasi, "Angllarning cherkov tarixi" (Historia Ecclesiastica gentis Anglorum) asarlari lotin tilida yozilgan bo'lib, qadimgi anglo-saks qabilalarining tarixi haqida noyob manba hisoblanadi.

b) Tarixchi Bedaning ta'kidlashicha VII asrga tegishli Kedmon qo'shiqlari to'qqiz qatordan iborat bo'lib, Injil mavzusiga tegishli bo'lgan. Kedmon Yorkshirda yashagan cho'pon bo'lgan.

Anglo-sakslar Rim madaniyatiga erishgandan keyin runik yozuvining o'rniga lotin alfaviti kirib keldi. Ammo lotin alfaviti hamma qadimgi ingliz tilining tovushlarini aks ettira olmadi. Shuning uchun lotin alfavitiga runik yozuvidagi bir necha harflar kiritilgan edi. Shulardan runa "þ" oldiga sirg'aluvchi undosh tovushni ifodalagan (yani θ). Shuningdek "W" tovushini ifodalash uchun alohida bir runaga ega bo'lishgan, bundan tashqari bitta lotin harfi bir nechta tovushni ifodalagan, masalan, "C" hamda "G".

Uesseks dialekti; qirol Alfredning asarlari;

1. Lotin tilidan tarjima qilingan "Pastorning vazifa va burchlari".

2. Lotin tilidan tarjima qilingan "Butun dunyo tarixi". Shuni aytib o'tish joizki, shoh Alfred "Butun dunyo tarixiga o'zi yaratgan Oxtxer va Vulfstanlarning sarguzashtlari haqidagi hikoyasini ham kiritgan edi.

3. Rim faylasufi Boetsiyning "Falsafaning ovutishlari" ning tarjimasi, "ingliz-sakson xronikasi" ning qadimgi qismi, Abbat Elfrikning yozganlari, Vulfstanning xutbalari Uesseks dialektida yozilgan asarlardir. Mersiya shevasida VIII asrga tegishli Vestpasa psaltiri (Vespasian Psalter) deb nomlanuvchi glossa (matnlar izohi)lar lotin tilida yozilgan gimnlar va psaltirning tarjimasi tegishli. Kent shevasida esa IX-asrning birinchi yarmiga tegishli psalm (diniy qo'shiq)lar, yuridik hujjatlar bizgacha yetib kelgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan asarlarni ko'zdan kechirganimizda shu narsani ko'rishimiz mumkinki, Uesseks shevasida yaratilgan asarlarning soni boshqa shevalarga qaraganda ancha ko'p. Bu asarlar Uesseks shevasi haqida juda katta

ma'lumot beradi va muhim ahamiyatga egadir, chunki qadimgi ingliz tili davrida Uesseks shevasi ingliz xalqining, endi rivojlanib kelayotgan ingliz tilining asosiy shevasi edi.

Ushbu shevaning badiiy rivojlanishiga qirol Alfredning (849-901) tarjimalari katta hissa qo'shgan. Ushbu shevaga tegishli eng katta yodgorliklardan biri "Anglo-saks xronikasi" hisoblanib, bizgacha bir necha qo'lyozmalarda yetib kelgan. Bulardan tashqari Alfred boshchiligida lotin tilidan tarjima qilingan Grigoriy I ning (549-604) "Pastor burchi" (sura pastoralis) asari tarjimasi. V asrdagi ispan monaxi Orozin she'rlaridan (540-604) «Dahriyning tarixiga qarshi yetti kitob» (Historiarum adversus paganos libri septem) asarlarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan dunyo tarixi va geografiyasi tasvirlanadi. Rim faylasufi Boetsiy (470-524)ning "Falsafaning yupanchi" (De Consolatione Philosophie) trakti tarjimasi, X-asrga tegishli Etelvold va uning maktabining "Benedikt ordeni qoidalari" (Blickling Homilies) tarjimalari saqlangan. Biz yuqorida faqat proza haqida gapirgan edik, ammo prozadan tashqari o'sha davrda poeziya ham yaratilgan edi. Bular "Beovulf", "Yudif", "Yuliana" poemalari bo'lib ular Kyunevulf tomonidan yaratilgan edi. Bu poemalarda uesseks shakllari bilan bir qatorda angl shakllari ham uchraydi. Balki shu poemalar avvalo angl shevasida yozilgan bo'lib, keyinchalik uesseks shevasi asosiy bo'lib qolganda bu poemalarga ko'chiruvchilar tomonidan angl so'zlarining o'rniga uesseks shakllari kiritilgan bo'lishi ham mumkin. Uesseks shevasini endi yaratilib kelayotgan ingliz tiliniig asosiy shevasi deb ham hisoblashimiz mumkin.

Shuning uchun ham bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarda har-xil dialektlarning elementlarini uchratishimiz mumkin.

Mavzuga doir savollar:

1. Qadimgi runik yozuvidagi yodgorliklar asosan qaysi shevalarga tegishli bo'lgan?
2. Rim hukmronligi Britaniya hududida qancha davom etdi?
3. Qadimgi german qabilalariga qaysi qabilalar kirgan?
4. German qabilalarining istilosi necha asr davom etdi?

5. Skandinavlar istilosi qadimgi ingliz tiliga qanday ta'sir etgan?

Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi gaplarni o'qing, tarjima qiling, tarjimangizni namuna bilan solishtiring. Tarjimada yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qiling. Gaplarda ishlatilgan fe'llarning shakli, ma'nosi va kombinatorikasiga e'tibor bering.

Qadimgi ingliz tili davri

1. Se unfrith flota waes thaes sumeres gewend to Ricardes rice (Chron., p. 248) - O'sha dushman floti ayni yozda Richardning yerlari tomon jo'nab ketdi.

2. Eal his *weorod* other oflegen waes other geflymed (Bede., p. 148) - Uning barcha qo'shini yo o'ldirildi yoki tum-taraqay qochirib yuborildi.

3. Her saet se haesen *here* on Teanet and genam frith with Cantwarum (Chron., p. 131) - O'sha paytda Tenetda dushman qo'shini joylashib olgan va Kent aholisi bilan tinchlik sulhi tuzib olgan edi.

4. Thaet *folc* him ondswarode and cwaeth ... (Blickl, Hom., p. 71) - O'sha xalq unga javob berdi va dedi ...

O'rta davr ingliz tili

1. For *the Kynrod* of Cayn was more multiplied than this Kynrod (Polychron., p. 12) - Chunki Kainning avlodlari bu urug'ga qaraganda ko'proq tarqalib ketdi.

2. And so *the companye* was sfedefast and trewe (Polychron., p. 195) - Va shunday qilib qo'shin mard va sodiq bo'lib qolaverdi.

3. Glad was all the *baronage* (Guy of W., p. 11964) - Barcha baronlar mamnun bo'lishdi.

4. Seorhful wes his *dugethe* (Brut., p. 6284) - Uning qo'shini g'amga cho'mdi.

Qadimgi ingliz tilining fonetikasi

1. Qadimgi ingliz tili alfaviti.

2. Qadimgi ingliz tili undosh fonemalari.

3. Qadimgi ingliz tilining asosiy fonetik hodisalari; a) sinish, b) palatalizatsiya

(yumshoqlashish), c) umlaut, d) monoftonglashuv, e) unilarning qisqarishi, f) unilarning cho'zilishi.

4. Qadimgi ingliz tili unli va undoshlarining got tili unli va undoshlari bilan mosligi.

Tayanch iboralar: Palatalizatsiya, umlaut, monofgonglashuv. sinish, qisqa diftong cho'ziq diftong.

Fonema haqida tushuncha

Fonema deganimizda biz so'z ma'nolarini ajratuvchi ayrim nutq tovushlarini tushunamiz. Tilshunoslikda fonemalar va ularning variantlari ahamiyatga ega. Fonemaning variantlari deganimizda biz inson nutqidagi so'zning ma'nosini o'zgartirmasdan, balki ayrim odamlarning talaffuzida har-xil eshitiluvchi tovushlarini tushunamiz.

Masalan: ingliz tilida "house" so'zining [haus] standart talaffuzi bilan bir qatorda [hæus] degan dialektal talaffuzini ham eshitish mumkin. Shu misolda ko'rganimizdek [æu] tovushi bir yangi so'zning qismi emas, balki [au] fonemaning bir turidir.

Har bir tilning fonemalari va fonemalarning variantlari o'zaro ma'lum munosabatlarga ega va o'sha tilning har bir davri uchun turg'un fonemalar sistemasini vujudga keltiradi.

Tilning fonema sistemasi, grammatik qurilishi va asosan lug'at fondi ko'p asrlar davomida saqlanib qoladi. Tilning boshqa tomonlari kabi fonema sistemasi ham asta-sekin o'zgaradi. Bunday payt o'sha tilning o'ziga xos grammatik tuzilishi va lug'at tarkibi vujudga keltirgan sifat o'zgarishlar kabi fonema ham o'z sifat o'zgarishlarini yaratib beradi. Bu hol o'sha tilning o'ziga juda yaqin bo'lgan qarindosh tilga ham o'xshamaydigan tomonini tashkil qiladi.

Ushbu til fonemalarining o'zgarishi, qat'iy sistematik xarakterga egadir.

Birinchi, ma'lum bir tovush hamma joyda, hamma so'zlarda o'zgaradi. Bu tovush faqat uning o'zgarishiga to'sqinlik qiluvchi yoki uning boshqa tomonga yo'naltiruvchi sharoitdagina o'zgarmaydi. Masalan; [i:] cho'ziq unli tovushi barcha imkoniyat tug'ilgan paytlarda [ai] diftongiga aylangan.

Ikkinchidan ma'lum bir tovushning o'zgarishi unga bog'langan boshqa tovushlarning o'zgarishiga ta'sir etadi.

Tilning fonemalar sistemasi shu tilning ma'lum bir davr tarixida o'zaro aloqada bo'lgan o'zining alohida fonemalari taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun, ingliz tilining mavjud fonemalar sistemasini tushunish, uning orfografiyasidagi munosabatlarini aniqlash uchun, ingliz tili tarixi davomida tovushlarda vujudga kelgan qonuniy o'zgarishlar bilan tanishmoq zarur.

Qadimgi ingliz tili alfavitida 23 ta harf mavjud bo'lgan.

1. a. 2. æ. 3. b. 4. c [k] [k]. 5. d 6. e. 7. f [f] 8. ç [g], [g], [y], [j] 9. h [x], [x], [h] 10. i, 11. e, 12. m, 13. n [n], [ŋ] 14. o, 15. p, 16. r, 17. s [s], [z], 18. t, 19. þ[θ], [θ]. 20. u, 21. w, 22. x [ks], 23. y, [y], [w] **Bücher**

ç [g] til orqa unlisidan oldin **gan**.

[j] til oldi unlisidan oldin yeār va so'z oxirida **dæy**.

[y] orqa unlilar o'rtasida dagas (o'zbek tilidagi [g] tovushiga yaqin).

[g'] s-dan keyin **seegan** [gg].

h- |x| undosh oldidan **tahte, hnutu**.

|x'| til oldi unlilaridan so'ng **ryht**.

Qadimgi ingliz tilida undosh fonemalar quyidagicha bo'lgan:

Lab fonemalari; p [p] pund, b [b] bēodan (taklif etmoq) uu [w] hozirgi qo'llanmalarda w beriladi: wif (xotin), m [m]-mōna (oy).

Lab-tish fonemalari: f [f] **fæder**-ota f [v]-unli va jarangli undosh o'rtasida.

Drifan [dri:vən] - haydamoq, **hæfde** [hævde] - ega bo'lmoq.

Til oldi fonemalari; 1) tish o'rta tovushi, p yoki **th** [Ð] **thu**, [thu], [Ðu]-cen,

þ,th[th] unlilar o'rtasida **cweþan** [kwethan]-aytmoq, **bathian** [bathian]-sotib olmoq, 2) tish fonemalari; t[t] **tōþ**-tish, d [d] dōn-qilmoq, n[n] nama-ism, s [s] sēon-ko'rmoq, s[z] unlilar va unli hamda jarangli undosh o'rtasida risan-ko'tarilmoq, **bōsm**-ko'krak, r[r] ryht -to'g'ri, l[l] ceald-sovuq. Til o'rta fonemalari; c[k]-cild-bola.

cg[g'] –brycg - ko'prik

y[j]-yeard - hovli


h[x']-ryht-to'g'ri

Til orqa fonemalari; c[k] cumin - kelmoq

ç [g]-god- yaxshi

ç [u] draçan- tortmoq.

Ingiliz undoshlarining rivojlanishi, qadimgi ingliz tilida undosh tovushdagi o'zgarishlar



Qadimgi ingliz tilida undosh tovushida bir qancha o'zgarishlar bo'lib o'tgan edi, ammo shularning ichida ikkitasi eng muhimi edi.

1.Verner qonuni bo'yicha jarangsiz tovushlarning jaranglilarga aylanishi. Bu hodisa natijasida jarangsiz sirg'aluvchi [f] [p] [s] va [h] tovushlari urg'uli unli tovushdan oldin kelsalar va shu jarangsiz tovushlardan oldin urg'usiz unli turgan bo'lsa [v] [ð] [r] va [ɣ] jarangli sirg'aluvchi tovushlarga aylanadilar.

Bu hodisa birinchi marotaba daniyalik olim Verner tomonidan ochilganligi

uchun Verner qonuni deb atalgan edi. Verner qonuni buyicha vujudga kelgan [ð] keyinchalik [d] ga o'tgan.

Masalan **cweÐan** > **cwædon**, **cweden**.

Jarangli [s] esa unli tovushlar o'rtasida >[r] ga o'tgan (rotatsizm).

Jarangli [v] esa so'zining oxirida qadimgi ingliz davrining oxirida jaranglashga o'tgan edi.

Shunday qilib, Verner qonuni bo'yicha undoshlar quyidagicha o'zgargan edi:

[f]>[v]>[f] h>[ʔ] yoki tushib qolgan.

[p]>[p̥]>[d] [s]>[g]>[r] yoki tushib qolgan.

Verner qonunining natijasini hozir ham ko'rishimiz mumkin.

was-were (qad.ing. wæs-wæron)

2. **Sirg'aluvchi undoshlarning paydo bo'lishi.** Qadimgi ingliz tilida sirg'aluvchi undoshlar yo'q edi. XI asrda esa shu undoshlar vujudga keldi, [k] [g] [sk] > [ts] - til oldi unlilar oldidan til o'rta undoshlar turganligi natijasida.

ld>child

stide>stith va boshqalar.

Yangi fonemaning vujudga kelishi orfografiyada ham aks ettiriladi, XIII asrdan yangi tovush "ch" orqali ifodalanadigan bo'ldi.

[g]>[d₃]

q.ing. **eeg**>**edge** q.ing **bryeg**>**bridge**.

By tovush uchun **dge** kiritilgan edi.

[sk] >[sf]>[s]

q.ing. **eeċ**>**edge** q.ing **bryeċ**>**bridge**

By tovush uchun **dge** kiritilgan edi.

[sk] >[sf]>[s]

q.ing **sceadu**>**shadow**

sceorte >**shirt**

skip>**ship**

Bu tovush uchun **sh** kiritilgan edi. Shunday qilib, qadimgi ingliz davrining oxirida ingliz tili uchta yangi tovush bilan boyidi.

I. Qadimgi ingliz tili unli tovushlar sistemasi

Ingliz tili qadimgi davridayoq o'ziga xos bo'lgan malum bir unli tovushlar sistemasiga ega edi.

B.A.Ilish ta'rificha unli tovushlarning sistemasi quyidagicha edi:

Qisqa unlilar: **a, æ, e, i, o, u, y, ǣ**

Cho'ziq unlilar: **ā, æ, ē, ō, ī, ū, ŷ.**

Diftonglar: qisqa; **ea, eo, ie, io.**

cho'ziq: **ēā, ēō, īē, īō.**

Shuni aytib o'tish joizki, cho'ziq diftonglar azaldan bo'lib kelgan, qisqa diftonglar esa keyinchalik tilda bo'lib o'tgan har-xil jarayonlar natijasida vujudga kelgan.

æ:- ikki xil bo'lgan bo'lishi mumkin.

æ:- azaldan bo'lib kelgan va **æ** - keyinchalik umlaut natijasida paydo bo'lgan.

Satjan > sættan

V.D.AraKinning ta'rifi esa biroq boshqacha:

Qisqa unli fonemalar: **i, e, u, o, a**

Cho'ziq unli fonemalar: **ī, ē, ū, ō, ā.**

Cho'ziq diftonglar: **īō, ēō, æ:ā**

Qisqa diftonglar: **eo, æa**

Agar Ilish va Arakin klassifikatsiyalarini taqqoslab ko'rilsa, Arakin [**æ**] va [**a**] tovushlarini bitta fonemaning variantlari deb hisoblaydi. V.A.Ilish esa [**æ**] va [**a**] tovushlarini boshqa-boshqa fonemalar deb hisoblaydi.

Arakin ham Ilish ham **ǣ** unlisini **a** fonemasining varianti deb hisoblaydi, **o** tovushi ham **a** tovushi ham faqat **n** va **m** tovushlari oldida uchrab turishini aytishadi va yozuvda belgilanmaydi deb hisoblashadi, **mann, monn, land, lond** kabi.

Qadimgi ingliz yozma yodgorliklarida cho'ziq unli (-) yoki (:) belgilari bilan belgilanar edi. Belgi esa harfning tepasiga qo'yilar edi. Keyingi nashrlarda esa cho'ziq unli harflar gorizantal chiziqcha bilan belgilanadi. Qisqa unlilar esa (ˆ) belgisi bilan ifodalanadi.

Qadimgi ingliz unli tovushlarining asosiy o'zgarishlari


Qadimgi ingliz tilida sinish (breaking)

Qadimgi davr ingliz tili unli tovushlar sistemasining o'zgarishini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

1. Sinish.
2. Umlaut.
3. Palatalizatsiya.
4. Unlilarning qisqarishi.
5. Unlilarning cho'zilishi.
6. Monoftonglashuv.



Qadimgi ingliz tili unli larida yuz bergan fonetik jarayonlar



I. Sinish hodisasi.

Ushbu jarayon natijasida qisqa unlilar ayrim undosh birikmalar oldida diftonglarga aylangan. Ushbu jarayon æ va e unli tovushlariga tarqalgan edi:

r+undosh, l+undosh, h+undosh va so'z oxirida h tovush oldida æ > ea ga o'tgan:

fællan>feallan

mæht>meaht

næht>neaht

ærm>earm

sæh>seah

e>eo ga o'tgan r+undosh, lc, lh, h+undosh va so'z oxirida.

sterno> siteorra

elh> eolh

feh >feoh

fehtan> feohtan

melcan > ecolcan

V.D.Arakin faqat qisqa unlilar emas, balki cho'ziq unlilar ham shu jarayonga

kiradi degan fikrda. Masalan: [æ]>[æa] næh> nēah kabi.

Sinish jarayoni VI asrning birinchi yarmida bo'lib o'tgan va u faqat Uesseks dialektida uchragan edi. Boshqa shevalarda, masalan, mers shevasida ko'p holatlarda sinish bo'lmagan. Masalan, "æ" unli tovushi keyinchalik "a" unlisiga aylangan: shuning natijasida "arm, ald, ahla, sah" formalari kelib chiqqan.

Palatalizatsiya (Yumshoqlashish)

Qadimgi ingliz tilida unli tovushlar shuningdek so'z boshida keluvchi yumshoq undosh tovushning ta'sirida o'zgarishga uchraydi. Bunday undoshlar qatoriga "ç, c" tovushlari va "sc" tovushlarining birikmasi kiradi. Shuningdek, "ç" va "c" tovushlari oldingi qatordagi undoshlargagina ta'sir qiladi, ammo "sc" tovushlari birikmasi esa, barcha unilarga ta'sir etadi. Natijada unililar diftonglashadi:

e>ie gefan>giefan - "bermoq"

æ>ea gat>geat - "darvoza"

æ>ē gæt>gēat - "yil"

a>ea scacan>sceacan - "siltamoq"

o>eo scort>sceort - "qisqa"

Shuni ham qayd qilish kerakki, **giefan, gioldan** tipidagi yozishlar boshqacha talqin etilishi ham mumkin.

Ilgari "i" harfi "çiefan" so'zida va shunga o'xshash holatlarda, unli tovushni emas, balki oldingi undoshning yumshatilgan (palatal) artikulyatsiyasini ko'rsatadi degan fikrlar ham bo'lgan edi. By masala hozirgacha ham hal bo'lmagan. Masalan, çeat formasi va unga o'xshash formalar bilan bir qatorda diftonglashmagan çæt formasi ham uchraydi.

Palatalizatsiya (yumshoqlashish) hodisasi umumiy jarayon emas, bu hodisa ko'pincha uesseks dialektida uchraydi, u norman, kelt va nortumb dialektlarida ham bor. Shuning uchun ham diftonglanish jarayoni tilning keyingi taraqqiyotida kam uchraydi.

Umlaut yoki mutatsiya

O'zidan so'nggi undoshlarning qisman assimilyatsiyasi ta'sirida unli tovushda vujudga kelgan o'zgarishga mutatsiya (umlaut) (pereglasovk) deyiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu hodisa uchun umlaut termini ham ishlatiladi. Mutatsiya (umlaut)ning eng ko'p tarqalgan turi quyidagi bo'g'inlarda "i" unlisi (yoki undoshi) tufayli vujudga kelgan umlautdir.

German tillarida i (yoki j) ning oldidan bo'lgan artikulyatsiyasi o'zidan oldin kelgan tovushlar sifatini butunlay o'zgartirib yuboradi va bir fonemani boshqasi bilai almashtirib yuboradi.

Shuning uchun ham german tillarida umlautning ahamiyati juda katta. Qadimgi ingliz tilida i-umlaut deyarli hamma tovushlarni o'ziga jalb qilgan edi. Faqat "i" va "c" unlilariga i-umlaut tarqalmagan edi, chunki bu tovushlarga bundan oldin ham boshqa unlilar ta'sir etgan edi.

i-umlaut natijasida quyidagi o'zgarishlar kelib chiqqan:

a>e harjis >here
æ>e tælian> tellan
ā>æ bradi> bræde
o>c dohtri>dehter
ō>ē foti>fet
u>y huggiejan>hynggran
u>y brūtis>bryd

Diftonglar

ea>ie hleahian> hliehlan
ēā>īē heahire> hiera
ea>ie ζeorn>ζiearnan
ēō>īē jetrēōur >jetrīēur

Orqa umlaut (**Back Umlaut**)

Orqa umlauti "u, o, a" orqa unlilari natijasida bo'lgan. Orqa umlautning mohiyati shundaki, quyidagi unlilarning orqa artikulyatsiyasi oldingi unlida bo'ladi, shuning natijasida oldingi unli diftongga aylanadi.

Masalan:

i>io hira>hiora "ularning"

e>eo hefon>heofon "osmon"

a>ea saru>searn "qurol-yaroq"

Unlilarning tushib qolishi

Agar so'zda ikkita unli tovush uchrasa va o'sha ikki unli tovush o'rtasida undosh tovush uchrasa, o'sha paytda ikki unli bitta cho'ziq unli tovushga aylanadi.

1. "h" harfi tushib qolishi natijasida:

slahan>sleahan>slēōn - kulmoq

sehan>seohan>sēōn - ko'rmoq

2. **ec>eh+unli**

3. **ō<oh+unli**

fohan>fōn - ushlamoq

4. **sæe>sæ - dengiz**

Til tarixini o'rganishning muhim masalalaridan yana biri, ushbu tilga qardosh bo'lgan tillar o'rtasidagi aloqalarni o'rganishdir. Bunday o'rganishning vositalaridan biri, ushbu tillardagi fonetik sistema va grammatik qurilmalarni qiyoslab o'rganishdir.

Ingliz tili tarixini o'rganish davomida, umumgerman tillari asosi bo'lgan got tili va qadimgi ingliz tili tovushlarini mosligini bilish juda muhimdir. Ushbu qiyosiy tarixiy metod qadimgi davr ingliz tili fonetik hodisalarini tiklashga yordam beradi.

1. Got tilidagi [a] qadimgi ingliz tili yopiq [æ] tovushiga mos keladi.

Got **dags** = qadimgi ingliz **dæg** - kun

Got **hwa** - qadimgi ingliz **hwæt** - nima

Got **pata** q qadimgi ingliz **þæt** - bu, ushbu

Ushbu keltirilgan misollardan qadimgi ingliz [æ] tovushi got [a] tovushidan kelib chiqqanligi ko'rinadi.

2. Got tilidagi [a] tovushi qadimgi ingliz tili ochiq bo'g'indagi [a] ga mos kelgan.

Got **dagos** = qadimgi ingliz **dagas** - kunlar

Got **faran** = qadimgi ingliz **faran** - bormoq

3. Got tilidagi [e:] qadimgi ingliz tilidagi [æ:] yoki [ea:] ga sinish hodisasi natijasida vujudga kelgan [æ:] ga mos tushadi.

Got **slepan** = qadimgi ingliz **slæpan** - uxlamoq

Got **letan** = qadimgi ingliz **lætan** - qoldirmoq

Got **jer** = qadimgi ingliz **gēar** - yil

4. Got tilidagi [ai] qadimgi ingliz tilidagi [a:] ga mos bo'lgan.

Got **aïns** = qadimgi ingliz **ān**- bir

Got **stains** = qadimgi ingliz **stān** - tosh

5. Got tilidagi [au] qadimgi ingliz tilidagi [ea:] ga mos bo'lgan.

Unli tovushlarning cho'zilishi

IX asrda “nd, ld, mb” harf birikmalari oldidan unli tovushlarning cho'zilishi:

climban>clīmban; findan>fīndan; cild>cīld

“a, o, e” qisqa unli tovushlar ochiq bo'g'inlarida cho'zilgan: **Tālu**.


Ushbu guruhda uchinchi undosh turgan bo'lsa, unilardagi cho'zilish yuz bermagan. Masalan: chidru (bolalar).

Urg'u

Qadimgi ingliz tilida ur'u so'zning birinchi bo'g'iniga tushgan, masalan: **ēadigga** (baxtliroq), **northewardum** (shimolga). Mustasno holatlar ajralmas prefiksli so'zlarda uchraydi. Bu so'zlarda urg'u o'zakka tushadi, masalan: **un'ginnan** (oldini olmoq), **on'ginnan** - (boshlamoq) **ge'pēode** (til).

Leksika

Qadimgi ingliz tili leksik tuzilishi umum german tillari leksikasi bilan bir xil bo'lgan.



So'zlar, asosan umum hind-evropa tillariga mansub bo'lgan:

A) otlar: **fæder, mōdor, nama tunge, fōt** va boshqalar.

B) sifatlar: **neowe, riht, long**

C) fe'llar: **sittan, beran, teran.**

So'z yasalishi.

Qadimgi ingliz tilida so'zlar asosan quyidagi uch yo'l orqali yasalgan:

1. Morfologik so'z yasalishi.
2. Sintaktik so'z yasalishi.
3. Semantik so'z yasalishi.

Otlarni yasovchi suffikslar.

Quyidagi suffikslar otlarga yoki fe'llarga qo'shilishi orqali ot yasagan. Bu suffikslar otlarni rodlarga bo'lishga xizmat qilgan, har bir suffiks biror-bir rod bilan bog'liq bo'lgan.

-ere- muj. roddagi otning bajaruvchi shaxsni ifodalash uchun qo'llanilgan: writere - yozuvchi, fiscere - baliqchi. By suffiks got tilidagi – aries suffiksiga mos kelgan; –estre suffiksi jen. roddagi shu ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan: bæcestre – oshpaz ayol.

-nd otlashgan fe'l qo'shimchasi bo'lib, muj. roddagi otlarni yasash uchun qo'llanilgan: frēond - do'st, demend - sudya.

-ing sifatga qo'shilishi orqali shaxsning xarakterini ifodalash uchun qo'shilgan, shuningdek, kelib chiqishini ifodalash uchun otlarga qo'shilgan: cyning – qirol, ætheling – dvoryan o'g'li.

-ling ot, sifat, fe'llarga qo'shib erkalash ma'nosini anglattan: deorling – azizam.

-nes, -nis suffikslarni sifatlarga qo'shilish orqali ot yasagan: godnis-yaxshilik.

-uþ, -oþ yuqoridagidek erkalash ma'nosini ifodalashga qo'llanilgan: ζeoζuþ - yoshlik, huntoþ - ov.

-dōm, dōm - taqdir otidan kelib chiqqan bo'lib wisdōm - donolik, freodōm – ozodlik kabi otlarni yasashda qo'llanilgan.

-scipe scieppan-yaratmoq fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, quyidagi otlarda uchraydi: freondscipe - do'stlik, gebeorscipe - bayramni nishonlash.

Sifat yasovchi suffikslar

-ede otga qo'shilish orqali sifat yasagan: hocede-qayishgan, healede-singan.

-ihte otga qo'shilish orqali sifat yasagan: stænuhie - toshloq.

-ig otlarga qo'shilish orqali sifat yasagan: halig - muqaddas, modig-g'ururli, mistig - tumanli.

-en narsaga oid sifatlarni yasagan: gyliden - oltin, wyllen - junli.

-isc millatga tegishlilikni ifodalovchi sifatlarni yasash uchun qo'llanilgan: frencisc - frantsuz.

-sum fe'l va otga qo'shilish orqali sifat yasagan: sibbsum - tinch, langum - zerikarli.

-feald fe'lga qo'shilish orqali sifat yasagan: seofonfeald - yetti marotaba.

-full otlarga qo'shilish orqali sifat yasagan: sorgfull - xafa bo'lgan.

-lēas otlarga va fe'llarga qo'shilish orqali inkor sifatni yasagan: slæplēas - uyqusiz.

-lie sifat va otlarga qo'shilish orqali sifat yasagan: luflic - suyukli, freondlic - do'stona.

Fe'l yasovchi suffikslar

-læc ba'zi fe'llarni yasagan: neealæcan - yaqinlashmoq.

-ett fe'l yasash uchun xizmat qilgan: blicccttan - yaltiramoq, cohhettan-yo'talmoq.

Prefikslar

Qadimgi ingliz tilida **-ā-** old qo'shimchasi fe'llarga qo'shib, chiqish kelishigi ma'nosini bildirgan **ārisan** – turmoq, **āwacan** – uyg'onmoq.

Shuningdek **-ā-** old qo'shimchasi so'roqni ifodalaydigan olmosh va ravishlarga qo'shib tasdiq ma'nosini bildirgan, masalan: hwæ:r - qaerda, āhwæ:r - har joyda, hwæþer - qaysi biri, āhwæþer - har biri.

be - old qo'shimchasi ot va fe'llarga qo'shib, ba'zi holatlarda "atrofida" ma'nosini bildirsa began – atrofda yurmoq, ba'zan o'zbek tilidagi "ko'rmoq" ko'makchi fe'lga yaqin ma'noni bildirgan: beþencan- o'ylab ko'rmoq.

for - old qo'shimchasi ham fe'llarga qo'shib "parchalanish", "tark etish" ma'nolariga yaqin ma'noni bildirgan, masalan: fordon - buzmoq, forweorþan - o'lmoq.

ge - old qo'shimchasi otlarga qo'shilganda "hamkorlik" ma'nosini bildirsa gefera - hamroh, fe'llarga qo'shilganda "tugallanganlik" ma'nosini ifodalagan: geseon – ko'rmoq, ko'rgan bo'lmoq.

mis - old qo'shimchasi inkor ma'noni bildirgan: mislician - yoqmaslik.

of - old qo'shimchasi kuchaytirish ma'nosini bildirgan: ofteon - tortib olmoq.

un, wan - old qo'shimchalari inkor ma'noni bildirgan: uncuþ - notanish, wanhal – nosog'lom.

Mavzuga doir savollar

1. Qadimgi ingliz tilida nechta unli fonemalar mavjud bo'lgan?
2. Sinish hodisasi qay holatlarda yuz bergan?
3. Umlaut hodisasi deb qanday hodisaga aytiladi?
4. Qadimgi ingliz tili davrining qaysi unilari got unli tovushlariga mos kelgan?
5. Qadimgi davr ingliz tili undoshlarining qaysilari got undoshlariga mos

kelgan?

Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi gaplarni o'qing, tarjima qiling, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilang. Gaplarda uchragan ot va fe'llarni shakl, ma'no va kombinatorikasi nuqtai nazaridan tahlil qiling.

1. Tha gewende *se here* sona to Londene and tha burth utone **besaeton** (Chron., p. 281) - Shunda qo'shin darhol Londonga jo'nab ketdi va shaharni qamal qildi.

2. *Weorod* eall aras, **eodon** unbilithe ... (B., p. 3030) - Qo'shin (otryad) to'la jangga otlandi, barcha g'amgin holda ketardi.

3. *Th seo scip fyrd* eall belaf and **gewendon** ealle heom ham (Chron., p. 317) - Dengiz qo'shinlarining barchasi qoldi va so'ngra uylariga qarab yo'l oldi.

4. Tha ofer thene midne sumor oca tha se micla *flota* to Sandwie and **dydon** eall swa hie ear gewuna waeron (Chron., p. 257) - O'shanda yozning o'rtalarida Sanduikka katta flot keldi va avval nima qilib yurgan bo'lsa, o'sha tartibni tikladilar.

5. *Fetha* eall gesaet, **gesawon** tha eafter wartere wyxmoyennes fella (B. 1424) - Otryad suvda yurgan sudralib yuruvchilarga qaradi.


Qadimgi ingliz tili grammatik tuzilishi

Reja:

1. Morfologiya. So'z turkumlari muammosi.
2. Ot va uning grammatik kategoriyalari.
3. Otlarning turlanishi.

Tayanch iboralar: Otlarning kuchli turlanishi, otlarning kuchsiz turlanishi, o'zak negizli turlanish, morfologiya, grammatika, kategoriya, bosh, jo'nalish, tushum kelishiklari.

Qadimgi ingliz tilidagi so'zlarning morfologik tizimi



- o -, - u -,
- n -, - v -,
- s -.

Zamonaviy ingliz tilidagi so'zlarning morfologik tizimi



1. Ma'lumki, morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z shakli o'zgarishi, so'z turkumlari va boshqalarni o'rganadi. Qadimgi ingliz tilida quyidagi so'z turkumlari mavjud bo'lgan: ot, sifat, olmosh, son, fe'l, ravish, predlog, bog'lovchi va yuklama.

Hozirgi zamon ingliz tilini qadimgi davr ingliz tili bilan qiyoslab shuni aytish mumkinki, qadimgi ingliz tilini sintetik til sifatida xarakterlash mumkin. Qadimgi ingliz tili grammatik tuzilishida biror- bir so'z, misol uchun ot, sifat, fe'l gapdagi boshqa so'zlar bilan munosabatda bo'lishi uchun turli affikslar qo'shilgan. Shuning uchun, qadimgi ingliz tili gap strukturasi aniq so'z tartibiga ega bo'lmagan.

2. Qadimgi german tillarida, shuningdek qadimgi ingliz tilida ham ot kategoriyasida quyidagi grammatik kategoriyalar bo'lgan: a) Kelishik kategoriyasi. qadimgi ingliz tilining ot tuzilishida to'rtta grammatik kelishik kategoriyasi, bosh kelishik, qaratqich kelishik, jo'nalish va tushum kelishiklari bo'lgan; b) Son kategoriyasi. qadimgi ingliz tili son kategoriyasida birlik va ko'plik shakllari mavjud bo'lgan; c) Otning grammatik rod kategoriyasi. Qadimgi ingliz tili uchta rodga bo'lingan: mujskoy rod, jenskiy rod, sredniy rod.

Qadimgi ingliz tilida rod kategoriyasi leksik - grammatik tuzilishga ega

bo'lgan. Har bir ot o'z shakli mazmuni jihatdan biror-bir rodga tegishli bo'lgan. Otning grammatik rodi ko'p holatlarda uning leksik ma'nosi bilan aniqlangan. Misol uchun: mann - kishi, fæder - ota, sunu - o'g'il, seeg - jangchi otlari mujskoy rodga tegishli bo'lgan bo'lsa, modor - ona, ewēn - qirolicha, dohtor - qiz otlari jenskiy rodga tegishli bo'lgan. Ammo ko'p holatlarda otning rod kategoriyasi leksik mano bilan bog'liq bo'lmagan, masalan, mujskoy rodga fot - oyoq, ende – yakun, nama - ism, jenskiy rodga giefu-qobiliyat, tunge - til, sredniy rodga scip - kema, eage - ko'z otlari kirgan.

Ko'pgina holatlarda otning grammatik rod kategoriyasi leksik ma'noga qarama-qarshi bo'lgan. Masalan: wif – xotin - sredniy rodga, wifman - ayol - mujskiy rodga tegishli bo'lgan.

Otning rod kategoriyasi rus tilidagidek shakliy xususiyatga ega bo'lmagan va ushbu otlarning rodi birikib kelgan sifat olmosh bilan aniqlangan.

3. Qadimgi ingliz tilida avvalgi negiz yasovchi affiksga bog'liq holda otlarni negizlarga bo'lish ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Shu sabab bilan qadimgi ingliz tilida otlar 3 guruhga bo'lingan.

Kelishiklar kategoriyasi

Qadimgi ingliz tilida 4 ta kelishik, ya'ni bosh kelishik, qaratqich kelishik, jo'nalish kelishik va tushum kelishigi bor edi.

Uchta tur turlanish bor edi.

Kuchli turlanish (strong declention)

Kuchli turlanish otlarning negiz yasaydigan suffiksi unli tovushlar edi.

4 asosiy negiz yasaydigan suffikslar bor edi.

1. negizi «a» otlar;
2. negizi «o» otlar;
3. negizi «i» otlar;
4. negizi «u» otlar.

Qadimgi ingliz tilida "a" negizli otlarga mujskoy va sredniy rodga bir yoki ikki undosh bilan tugaydigan otlar kirgan.

1. "a" bilan negiz

stan - tosh	scip - kema
wulf - bo'ri	word - so'z
hring - uzuk	bān - suyak
muth - og'iz	dēor - kiyik

Agar o'zak va negiz yasovchi affiks o'rtasida -i- turgan bo'lsa, negizi -'ja'-li deb ataladi, chunki -i- keyinchalik -'e'-ga o'tgan.

M.R.	Sr.R.
here - qo'shish	wite - jazo
ende - nihoya, yakun	rice - hukumat
seeg - harbiy	cynn - rod

Shuningdek ushbu negizli otlarga -nn, -cg undoshlari bilan tugagan otlar ham kirgan. Agar o'zak va negiz yasovchi affiks o'rtasida urg'usiz "u", "w" turgan bo'lsa negizi "wa" bo'lgan otlar deb ataladi. Ushbu tur otlariga bosh kelishikda mujskoy va sredniy roddagi "w, u, o" bilan tugagan otlar kirgan.

M.R.	Sr.R.
snāw – qor	meolu - un
dēaw – shabnam, shudring	trēo(w) – daraxt
bearu – daraxtzor	cnēo(w) - tizza

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muj. rod. va sr.roddagi negizi "a" bo'lgan otlarga quyidagilar kiradi:

- 1) negizi "a" turlanishli otlar;
- 2) negizi "a" bo'lgan otlar.
- 3) negizi "jo" bo'lgan otlar
- 4) negizi "wa" bo'lgan otlar

Quyida ushbu otlarning kelishiklarda turlanishi berilgan.

	M.R	M.R	Sr.R	Sr.R
	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
	--	-as	--	-u

	-cs	-a	-es	-a
	--	-um	-e	-um
	--	-as	--	-u

Son	K.k	M.R	M.R	M.R	Sr.R	Sr.R	Sr.R
		-a- negizli	-ja- negizli	-wa- negizli	-a- negizli	-ja- negizli	-wa- negizli
Birlik	B.k	hring	Here	bearu	scip	rice	trēo(w)
	Q.k	hringes	her(i)es	berawes	scippes	rices	trēwes
	J.k	hringe	her(i)e	bearwe	scipe	rice	trēowe
	T.k	hring	here	bearu	scip	rice	trēo(w)
Ko'plik	B.k	hringas	her(i)as	bearwas	scipu	ric(i)u	trēow
	Q.k	hringa	her(i)a	bearwa	scipa	ric(i)a	trēowa
	J.k	hringum	her(i)um	bearum	scipum	ric(i)um	trēowum
	T.k	hringas	her(i)as	bearwas	scipu	ric(i)u	trēow

Birlik

	M.p	S r. rod
Bosh	stan	reced
Qarat	stanes	recedes
Jo'nal	stane	recede
Tushum	stan	reced

Ko'plik

	M.p.	Sr.rod
Bosh	stanas	reced
Qarat	stanu	recede
Jo'nal	stanum	recedum
Tushum	stanas	reced

Negizi -ō- negizli turlanish

Qadimgi ingliz tilida -ō- negizli otlarga jen. roddagi -u- yoki undoshli ot bilan tugaydigan otlar kirgan. Agar o'zak va negiz yasovchi affiks orasidagi urg'usiz -i- turgan bo'lsa, bu turlanish -jo- negizli deb atalgan. Bu turlanishga ham jen. roddagi otlar kirgan.

Ushbu otlarda -ō- turlanishda ham bosh kelishikdagi negiz yasovchi affiks tushib qolgan, agar o'zak va negiz yasovchi affiks o'rtasidagi -u- orfografik belgisi

yoki -w- bo'lsa, bu turlanish -wo- turlanish deb ataladi. Jen. roddagi negizi -o- bo'lgan otlarga quyidagilar kirgan:

- 1) negizi -ō - bo'lgan otlar
- 2) negizi -jō - bo'lgan otlar
- 3) negizi -wo- bo'lgan otlar

Negizi "o" turlanishli otlarning turlanishi

	Jen.rod	Jen.rod
k.k	Birlik	Ko'plik
B.k	-u	-a
Q.k	-e	-a
J.k	-e	-um
T.k	-e	-a

Bu turga faqat jen. rod so'zlari kiradi :

Birlik		Ko'plik	Birlik	Ko'plik
Bosh	fōr	Fōra	swipir	swapa
Qarat.	fōre	Fōra	swape	swapa
Jo'nal.	fōre	Fōrum	swape	swapum
Tushum	fōre	fōra	swapc	swapa

Negizi "i"

Qadimgi davr ingliz tili -i- negizli otlarga uchchala roddagi otlar kirgan. Ammo tilning tarixiy rivojlanishi jarayonida -i- negizli otlar boshqa negizli otlarning kelishik qo'shimchalarini ola boshlagan, ya'ni -i- negizli muj. va sr. roddagi otlar -ja- negizli muj. va sr. rodga o'tgan -i- negizli jen. rod otlari -ja- negizli otlarga o'tgan.

	Birlik	
Muj. r.	Sred. r	Jen. r.
Bosh hyll	hilt	hyd
Qar. hyless	hiltes	hyde

Jo'n. hylle	hilte	hyde
Tush. hyll	hill	hyd
Ko'plik		
Muj. r.	Sred. r	Jen. r.
Bosh hyllas	hilt	hyde(a)
Qar. Hyla	hilta	Hyda
Jo'n. hyllum	hiltum	Hydyem
Tush. hyllas	hilt	hyde(a)

Negizi «u»

Qadimgi ingliz tilida -u- negizli otlarga -u- yoki bitta va ko'proq undosh bilan tugagan muj. va jen. roddagi otlar kirgan. Negizi -u- bo'lgan otlarga quyidagi otlarni kiritish mumkin : Muj. roddagi otlarga sunu - o'g'il, wudu-daraxt, feld - dala, jen. roddagi otlarga duru - eshik, nosu - burun, hand - qo'l, frōr - pol.

Birlik

	Muj	Jen
Bosh	sunu (u)	duru (u)
Qar.	sunu (a)	dura (a)
Jo'n.	sunu (a)	dura (a)
Tush.	sunu (u)	duru (u)

Ko'plik

	Muj	Jen
Bosh	sunu (a)	dura (a)
Qar.	sunu (a)	dura (a)
Jo'n.	sunum (um)	durum (um)
Tush.	sunu (a)	dura (a)

Kuchsiz turlanish

Qadimgi ingliz tili davri undosh negizli turlanish otlari ham o'z navbatida bir necha guruhga bo'lingan.

1. -en- negizli otlar

2. -r- negizli otlar

3. -s- negizli otlar (Negizi «n»)

-n- negizli otlarga qadimgi davrda barcha roddagi otlar kirgan

Muj. Rod	Jen. rod.	Sred. rod.
nama – ism	sunne – quyosh	ēaǰe- koʻz
guma –erkak	swealwe-qaldirgʻoch	ēare-quloq
steorra- yulduz	tunge- til	

Muj rod soʻzlari birlik son bosh kelishigida "a" kelishigini oladi, jen. va sr. rod soʻzlari "e". Sr. rodda tushum kelishigi bosh kelishik bilan bir xil, qolgan boshqa kelishiklarda 3 rodning turlanishlari bir-biridan farq qilmaydi.

Son	Kelishik	Muj. rod	Jen. rod	Sred. rod
Birlik	B.k	-a	-e	-e
	Q.k	-an	-an	-an
	J.k	-an	-an	-an
	T.k	-an	-an	-e
Koʻplik	B.k	-an	-an	-an
	Q.k	-ena	-ena	-ena
	J.k	-um	-um	-um
	T.k	-an	-an	-an

	Birlik son	
Muj.	Sred.	Jen.
Bosh nama	cwene	ēaze
Qar. naman	cwenan	ēazan
Joʻn. naman	cwenan	eajan
Tush.	Koʻplik son	ēaze
naman	Cwenan	
Muj.	Sred.	Jen.
Bosh naman	cwenan	ēazan
Qar. namena	cwencna	cazna

Jo'n. naminn	cwenum	ēazit
Tush. maman	cwenan	ēazan

Otlarning -r- negizli turlanishi

Qadimgi ingliz tilida -r- negizli otlarga qarindoshlikni ifodalovchi otlar kirgan.

Mujskoy rod	Jenskiy rod
--------------------	--------------------

fæder	mother
-------	--------

broder	dohtor
--------	--------

“r” negizlar.

Turlanishning bu turiga qarindoshlikni ifodalaydigan muj. va jen. rodning bir nechta so'zlari kirgan.

Birlik

Mujskoy rod	Jenskiy rod
--------------------	--------------------

Bosh fæder	dohtor
------------	--------

Qar. fæder (es)	dohtor
-----------------	--------

Jo'n. fæder	dohtor
-------------	--------

Tush. fæder	dohtor
-------------	--------

Ko'plik

fæderas	dohtor-tra-tru
---------	----------------

fædera	dohtra
--------	--------

fæderum	dohtrum
---------	---------

fæderas	dohtor -tra –tru
---------	------------------

O'zak negizli turlanishli otlarga asosan quyidagi otlar kirgan:

Jenskiy rod	Mujskoy rod
--------------------	--------------------

ās - dub daraxti	fōt - oyoq
------------------	------------

gat - echki	hnutu- yong'oq
-------------	----------------

Turlanishning uchinchi guruhida negiz yasaydigan suffiks yo'q, shuning uchun qo'shimchalar o'zakka qo'shiladi.

Mujskoy rod

	Birlik	Ko'plik
Bosh.	fōt	fēt
Qar.	fōtes	fota
Jo'n.	fēt	fōtum
Tushum	fōt	fēt

3-kelishiklarda o'zakdagi unli o'zgaradi bu pereglasovka (umlaut)ning natijasidir.

Jenskiy rod

	Birlik	Ko'plik
Bosh.	fōc	fēc
Qar.	fōtce	fōca
Jo'n.	fēc	fōcum
Tushum	fōc	fēt

Mavzuga oid savollar

1. Qadimgi davr ingliz tilida ot qanday grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan?
2. Zamonaviy ingliz tili ot tuzilishi qadimgisidan qanday sifatlari bilan farq qilgan?
3. Qadimgi davrda otlar necha xil turlanishga ega bo'lgan?
4. Qanday otlar kuchli turlanishli otlar deb atalgan?
5. Qanday otlar kuchsiz turlanishli otlar deb atalgai?

Sifat. Ravish. Olmosh. Son.

Reja.

1. Qadimgi davr ingliz tili sifat sistemasi.
2. Qadimgi davr ingliz tili sifat darajalari.

3. Ravish sistemasi
4. Olmosh sistemasi
5. Son sistemasi

Tayanch iboralar: Olmosh , artikl, suffiks, sanoq son, tartib son.

Qadimgi davr ingliz tili sifati rod, son va kelishiklarda belgilangan. Sifatlarning rod kategoriyasi sof grammatik kategoriya sifatida rodlarda o'zgargan. Sifatlar ham o'z navbatida kuchli va kuchsiz turlanishlarga ega bo'lgan. Agar sifatlar umumiy ma'noda olingan otlarni aniqlasa, shu tarzda ular noaniq edi. Muj. va sr. rod noaniq sifatlari " ā " negizli otlar kabi turlanar edi. Jen. rod sifatlari esa "ō" negizli jen. rod so'zlari kabi turlanar edi, hamda uch rod sifatlari ham ba'zi bir kelishiklarda 3 shaxs olmoshlarining qo'shimchalarini olgan, shuning uchun noaniq turlanish olmoshli turlanish deb ham ataladi.

Agarda sifat aniq predmetlar va hodisalarni ifodalaydigan otlarni aniqlasa, u aniq sifat edi. Shunday otlarning oldida sē, sēo va þæt olmoshlari ham bor edi. Aniq sifatlar "ń" negizli otlar kabi turlanilar edi. Bu turlanishga uch rod sifatlari ham kirar edi.

Sifatlarning kuchli turlanishi

Kelishik	Muj. rod		Sred. rod	
	Birlik son	Ko'plik son	Birlik son	Ko'plik son
Bosh.	Blæc stän	Blæce stänas	Blæc fæt	Blacu fatu
Qaratqich	Blæces stänes	Blæcra stäna	Blæces fætes	Blacra fata
Jo'nalish	Blæcum stäne	Blæcum stänum	Blæcum fæte	Blacum fatum
Tushum	Blæcne stän	Blæce stänas	Blæc fæt	Blacu fatu
Birgalik	Blæce		Blæce	

Yuqoridagi turlanish jadvalidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Umuman olganda sifatlarning noaniq turlanishi otlarning kuchli turlanishi bilan mos keladi;
2. Ammo ba'zi bir kelishiklarda sifatlarning kelishiklari olmosh

kelishiklariga mos keladi. Shuning uchun ham bu turlanishni olmoshli turlanish deb ataydi. Olmoshli qo'shimchalarning tagiga chizilgan.

Jenskiy rod

	Birlik	Ko'plik
Bosh	swētu	Swēta
Qar.	Swētre	Swētra
Jo'n.	Swētre	Swētum
Tushum	swēte	swēta

Jen. rod sifatlaring ko'plik son qaratqich kelishik qo'shimchasi ham -ga (olmoshli) birlik son qaratqich va jo'nalish kelishik qo'shimchalari -ri olmoshli bo'lgan.

"a" va "o" negizli sifatlardan tashqari "jä:", "jo" ba "wu" - "wa" wo negizli sifatlarda ham bor edi.

"ja" va "jo" negizli so'zlar (pereglasovka) umlautga uchragan edi.

grōnja> groni>grene>green

swotja> swoti> swete>swect

"j" ta'sirida o>ë ga o'tar edi. "ā" na "o" reduksiya ta'sirida tushib qolgan edi. "j" > "i" ga o'tib, keyinchalik tushib qoladi. "wā" va "wo" negizli sifatlarning soni juda oz edi.

Ko'plik son bosh kelishikda "u" qo'shimchaga ega edi. Nearu (tor), geolu (sariq). Boshqa formalarida kelishik qo'shimchasi oldida [w] turar edi: Gearwe, gearwes.

Sifatlarning kuchsiz (slaboe) turlanishi

Birlik son			
	Muj. rod	Sr. rod	Jen. rod
Bosh	gōda nama	gōde ēage	gōde cwene

Qar.	gōdan naman	gōdan ēagan	gōdan cwenan
Jo'n.	gōdan naman	gōdan ēagan	gōdan cwenan
Tush.	gōdan naman	gōde ēage	gōdan cwenan
Ko'plik son			
	Muj. rod	Sr. rod	Jen. rod
Bosh	gōdan namab	gōdan ēagan	gōdan cwenan
Qar.	gōdra namena	gōdra ēagena	gōdra cwenena
Jo'n.	gōdum namum	gōdum ēagenum	gōdum cwenum
Tush.	gōdan naman	gōdan ēagan	gōdan cwenan

Bu erda biz ko'rganimizday faqat ko'plik son qaratqich kelishigida "ra" olmoshli qo'shimcha uchraydi, qolgan boshqa kelishiklar ot kelishiklari bilan mos kelgan.

Sifatning (qiyos) chog'ishtirish darajalari.

Hamma qadimgi german tillarida ham sifatlar uchta darajaga ega edi: oddiy, chog'ishtirma va orttirma daraja.

Qadimgi ingliz chog'ishtirma (qiyosiy) darajasi "ira" suffiksining qo'shilishi bilan vujudga keladi. Keyinchalik "r" tushib qoladi va "ira">"ra"

Orttirma darajasi esa oddiy darajaga "ist" qo'shilishi bilan hosil bo'ladi, "ist" so'ngra "est" ga o'tgan edi.

[i] tovushi til oldi umlaut (pereglasovkaga) olib kelgan edi.

earm	earma	earmost
glæd	glædra	gladost
eald	Ieldra (ealdire)	Ieldest(ealdist)
lang	Lengra (langira)	Lengest (langist)

"ira" va "ist" suffikslari bilan bir qatorda "ra" va "ost" suffikslari ham ishlatilar edi. Qadimgi ingliz tilida ular "ra" "ost" ga o'tgan edi.

Qadimgi ingliz tili sifat darajalari yasalishi uch xil shaklda amalga oshirilgan.

yasalishi	oddiy	qiyosiy	orttirma	zam. ing
------------------	--------------	----------------	-----------------	-----------------

Suffiks qo'shilish orqali	Soft wērig	Softra wērigra	Softost wērigost	Soft weary
Suffiks o'zakedagi unli o'zgarishi orqali	Glæd Long Eald	Glædra Lengra Ealdra (ieldra)	Gladost Lengest Ealdost (ieldost)	Glad Long old
suppletiv	Göd Lytel micel	Bettra Læ:ssa mara	Betest Læ:st Mæ:st	Good Little much

O'rta ingliz davrida ra > re ga o'tadi na urg'usiz "e" tushib qoladi, ammo "g" oldidan "e" paydo bo'ladi, ra>re>r>er.

"ost" esa > est

O'rta ingliz davrida bazi bir sifatlilar til oldi umlaut (pereglasovka)ni saqlab qolgan edi.

Old - elder - eldest

Long - lenger - lengest

Strong - strenger - strengest

Yangi ingliz davrida esa o'zakedagi unlilar tekislangan edi.

Long - longer - longest

Ammo hozirgacha ham umlautning ta'siri saqlangan:

Old- elder -elderst

Old - older - elderst

Qadimgi ingliz davrida "suppletiv" forma ham bor edi:

göd , betera – betst

lytel - læssa - lsest

micel - mara – mæst –māst

O'rta ingliz davrida:

god - better -best

litel, lutel - lesse-lest

Yangi ingliz davrida esa suppletiv sifatlari quyidagicha:

Good - better - best

Bad - worse - worst

Much (many) - more - most

O'rta ingliz davrida ko'p - bo'g'inli sifatlarda paydo bo'ldi. Endi yangi forma vujudga kelishi kerak edi, chunki "es" "est" ni qo'shma so'z juda uzun bo'lib ketgan edi. Shuning uchun ko'makchi so'zlardan foydalanish kerak edi - (more, most)

Shunday qilib hozir ingliz tilida ikkita usul bor: sintetik (er,est). analitik (more, most, less, least)

Ravish

Qadimgi davr ingliz tilida ravishlar sodda va yasama bo'lgan. Sodda ravishlar: hwǣr- where, þer-there, hwanne- when, þa-then, -soon.

Ravish qadimgi davr ingliz tilida suffikslar qo'shish orqali yasalgan.

1. Sifatga -e qo'shish orqali:

wid - wide

Sweotul—sweotule

2. Otga -lice qo'shish orqali:

frēond- frēondlice

3. Mujskoy roddagi -a- negizli otlarning qaratqich kelishigiga -es qo'shish orqali:

Dæg- Dæges

willa- willes

Ravishlarning qiyosiy darajasiga “-or” ortirma darajasiga “-ost” suffikslarini qo'shish orqali ravish darajalari yasalgan:

Wide widor widost

Olmosh

Olmoshlar sistemasi

Qadimgi ingliz tilida olmoshlarning bir nechta turlari bor edi, kishilik

olmoshi, egalik olmoshi, so'roq olmoshi, ko'rsatkich olmoshi va bo'lishsizlik olmoshi.

Egalik (kishilik) olmoshlarining taraqqiyoti

Qadimgi ingliz tilida birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlari uchinchi shaxs olmoshlaridan tamoman farq qilar edi. Shuning uchun bizlar ularni alohida tekshiramiz. Birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlari uch songa ega edi: birlik, ikkilama va ko'plik son, hamda turlanishda to'rt kelishikga ega edi:

Birlilik

K.k.	1 shaxs	2 shaxs	3 shaxs		
			Muj. rod	Jen.rod	Sred.red
B.k	Lc	thū	He	heo	Hit
K.k	Min	Thin	His	Hire	His
J.k	Me	The	Him	Hire	Him
T.k	Me, mec	The, thec	hine	Hie	hit

Ikkilik olmoshi

	1 - shaxs	2- shaxs
B.k	Wit- biz ikkimiz	Git - siz ikkingiz
K.k	Uncer - biz ikkimizni	Incer - siz ikkingizni
J.k	Unc - biz ikkimizga	Inc - siz ikkingizga
T.k	Unc, uncit - bizni ikkimiz	Inc - sizni ikkingiz

Ko'plik

K-k	1 - shaxs	2- shaxs	3- shaxs
B.k	We	Ge	Hie (hi)
K.k	üre	Eower	Hiora (heora, hiera,
J.k	üs	Eow	Him
T.k	Üs, üsic	eow	hie

Ko'rsatish olmoshlari.

Qadimgi ingliz tilida bosh ma'nosi "o'sha", "u" bo'lgan -se ko'rsatish olmoshi saqlangan.

sē mann (the man), sē see (the sea) Net lond (the land)

sē ko'rsatish olmoshining turlanishi quyidagicha:

K.k.	Birlik			Ko'plik
	Muj. rod	Jen.rod	Sred.red	Barcha rodlargaga
B.k	sē	sēo	thæt	thā
K.k	thæs	Thære	Thæs	Thara
J.k	thæm	Thære	Thæm	Thæm
T.k	Thone	thā	Thæt	thā
Bir.k	Thy, this, thisse	thære	Thy, thon	thæm

Pas-ko'rsatish olmoshining turlanishi

K.k.	Birlik			Ko'plik
	Muj. rod	Jen.rod	Sred.red	Barcha rodlargaga
B.k	Thas	Theos	Thās	Thās
K.k	thisses	Thisse	Thisses	Thisssa
J.k	Thissum	Thisse	Thissum	Thissum
T.k	Thisne	Thās	Thisne	Thās
Bir.k	Thys, this, thisse	thisse	Thys, this, thisse	thissum

Son

Tartib son

Qadimgi davr ingliz tilida sanoq sonlar 1 dan 3 gacha rodda turlangan.

Qolgan sonlar turlanmagan.

1 - an kuchli sifatlar singari turlangan.

2 - soni quyidagicha turlanadi:

	Muj. rod	Jen.rod	Sred.red
B.k	twegen	Tū, twā	twā
K.k		Twegea, twegra	
J.k		Twæm, twān	
T.k	twegen	Tu, twa	twā
3 – shaxs quyidagicha turlanadi			
	Muj. rod	Sred.red	Jen.rod

Б.к	Thrie, thri, thry	Thrio, threo	Thrio, threo
К, к		Thriora, threora	
Ж.		Thrim	
Т.к	Thrie, thri, thry	Thrio, threo	Thrio, threo
	4- feower	16- siexyiene	
	5-fit	17- siofontiene	
	6- siex, six	18- eahtatiene	
	7- seofon, siofon	19-nigontiene	
	8- eahta	20- twentig	
	9- nigon	30- thritig	
	10- tien, tyn, ten	40- feorwertig	
	11-endlefan	50- fiftig	
	12- twelf	60-siextig, sixtig	
	13- thriotiene	70- hundsiofontig	
	14- feorwertiene	80- hundeahtatig	
	15- fiftiene	90- hundnigonti3g	
	100- hundteontig		
	110- hundælleftig		
	120-hundtwelftig		
	200- tu hund		
	300- threo hund		
	1000- thūsend		
	2000- tu thūsend		

Tartib son

- 1- forma, fyrsta
- 2- other, ætera

3- thridda, thirida

4-feortha

5- fifta

6-siexta. sixta

7-siofotha

8-eahtotha

9-nigth

10-teotha

11-endlefta

12- twelfta

Keyingi 13dan 20gacha va o'nlik sonlarning tartibi **tha** qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan.

Mavzuga oid savollar

1. Qadimgi davr ingliz tilida sifat qanday grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan?
2. Qadimgi davr sifatlari qanday turlanishlarga ega bo'lgan?
3. Qadimgi davr ingliz tilida kishilik olmoshlari qanday shakllarga ega bo'lgan?
4. Qadimgi davr ingliz tili kishilik olmoshlari qanday grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan?
5. Qadimgi davr ingliz tili ko'rsatish olmoshlari qanday grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan?

Hozirgi zamon ingliz tili

1. *The crowd* were yelling so you couldn't hear anything (M.W.W., p. 110)
2. Joyse got up at five every morning and did everything for Dennis before *the family* was awake. (Refugee, p.20)
3. The whole *party* was in hopes of a letter from Mr.Bennet the next morning.

(Pr.Pr., p.289)

4. And the British *public is* really not equal to the mental strain of having more than one topic every three months. (D.Gray, p.251).

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, jamlovchi otlar gap tarkibida ega vazifasini bajarib kelganda, fe'l kesim birlik shaklda ham ko'plik sonda ham kelishi mumkin. Aynan shu hol ingliz tilidagi jamlikni bildiruvchi otlarning boshqa ma'noli otlardan farqlovchi belgilaridan biri hisoblanadi.¹

Qadimgi ingliz tilining fe'l morfologiyasi

Reja

1. Qadimgi davr ingliz tilining fe'l sistemasi.
2. Kuchli fe'llar
3. Kuchsiz fe'llar
4. Preterito-prezent fe'llari
5. Suppletiv fe'llar
6. Sintaksis. So'z tartibi.

Tayanch iboralar: Kuchli fe'l, kuchsiz fe'l, preterito-prezent fe'llari, dental suffiks, suppletiv fe'l.

Fe'l sistemasi.

Qadimgi ingliz fe'l sistemasi quyidagi kategoriyalarga ega edi :

1. son-ko'plik, birlik;
2. shaxs-1,2,3;
3. mayl-aniqlik, buyruq, shart (fe'l);
4. zamon - hozirgi, o'tgan;
5. tur - tugallanmagan turi, tugallangan turi;
6. fe'lning shaxssiz shakllari, infinitiv, sifatdosh I, II;

Qadimgi ingliz tilida fe'l ushbu xususiyatlaridan tashqari yana bir xususiyatga ega bo'lgan, ya'ni barcha fe'llar, fe'lning o'tgan zamon shakli va sifatdosh II shaklini yasash uchun turli grammatik vositalardan foydalanishga qarab ikki

¹ Bachnick K.R.Op.cit., p. 162

guruhga bo'lingan. 1) O'zakdagi unlining o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan fe'llar (kuchli fe'llar): 2) Fe'lga suffikslar qo'shish orqali yasaladigan fe'llar (kuchsiz fe'llar).

1-guruh fe'llari o'tgan zamoni o'zakdagi unlining o'zgarishi bilan hosil bo'ladi.

2-guruh fe'llari esa o'tgan zamonda suffikslar yordami bilan vujudga kelgan, ya'ni [d] [t]. Shuningdek qadimgi ingliz tilida kichik guruhda preterito-prezent va suppletiv fe'llari ham mavjud edi.

Kuchli fe'llarning taraqqiyoti

Unlilarning almashinuvi bilan fe'llar suffikslar bilan fellarga qaraganda qadimgiroq hisoblanadi.

Masalan: **etan** (ovqatlanmoq) **drincan**, spreca va qadimgi ingliz davridayoq bu usul unumsiz edi, chunki yangi fe'llar suffikslar yordami bilan o'tgan zamon shaklini hosil qilar edi.

Qadimgi ingliz tilida fe'llardagi unlilarning almashinuvi bilan fe'llar 7 razryadga bo'linar edi, ya'ni 7 sinfga.

Unlilarning almashinuvining mohiyati ularning til oldi unlilar, til orqa unlilari o'zgarardi va ba'zi vaqtlarda tushib qolar edi.

I sinf fe'llari

I sinfda almashinuvli unliga qadimgi ingliz davrlarda "i" unlisi kirgan edi va o'zakga kirib shu sinf uchun umuman xarakterli bo'lib qolgan.

Birinchi o'zakda ya'ni infinitiv va hozirgi zamonda almashinuvli I unlisi va keyin qo'shilgan "i" cho'ziq i ga o'tgan.

Ikkinchi negizda (o'tgan zamon birlik soni) almashinuvli a unlisi I bilan "ai" ga o'tgan edi va keyinchalik unlilar uzayishi natijasida "a" ga o'tgan edi. O'tgan zamon ko'pligida va sifatdosh II da qadimgi davrlarda almashinuvli unli yo'q edi, shuning uchun bu erda faqat qisqa "i" qatnashar edi.

Yuqorida aytilganni jadvalda ko'rsatish mumkin:

Infinitiv va qadimgi zamon	O'tgan zamon birlik	O'tgan zamon ko'plik	Sifatdosh o'tgan zamon	Tarjimasi
i+i>î	a+i>ai>ā	nul+i>i	nul +i>i	
writan	wrāt	writan	writen	yozmoq
risen	rās	rison	risen	turmoq
ridan	rād	ridon	riden	haydamoq

II sinf fe'llari

II sinfda almashinuvli unli [u] ga o'tgan edi. Birinchi o'zakda e+u>eu a o'tgan edi va eng qadimgi ingliz davridayoq "ēō" ga o'tgan edi. Bu negizda almashinuvli unli a va u > an diftongini bergan edi va keyin [a] > [æ] palatallashgandan keyin va ikkinchi elementi kuchsizlangandan keyin [æa] ga o'tgan edi va yozuvda "ēa" orqali ifodalanar edi.

Uchinchi va to'rtinchi negizlarda almashinuvli unli yo'q edi va o'zakda faqat u qolar edi. To'rtinchi negizda bu unli urg'usiz bo'lib qolib "ō" ga o'tgan edi. Uchinchi negizda esa urg'usiz "ū" saqlanib qolgan edi, chunki ko'plik son suffiksi yordam bergan edi.

Ille+u>en>e	A+u=au>ea	NUL+U>U	nul+wu>o	
Beodan	bead	budon	boden	taklif qilmoq
Ceosan	ceas	curon	coren	tanlab olmoq
Sceotan	sceat	scuton	scoten	otmoq

For - leosan for-leas for-luron for-laren yo'qotmoq

[z]>[r] o'tishi Verner qonunidir.

Ikkinchi sinfda bitta guruh mavjud bo'lib, u birinchi o'zakda [ēō] ning o'rniga [ú] unlisiga ega edi:

I	II	III	IV	
bugan	Beag	bugon	bogen	qayirmoq
lucan	leac	lucon	locen	qulflamoq

III sinf fe'llari.

3 sinf fe'llarining mohiyati shunda ediki, ular almashinuvli unlidan keyin [ʌ], [m], [n], [r] sonor undoshlari va yana bitta o'zakni yopadigan undosh turar edi. Sonor undoshlarning oldida unlilar har-xil rivojlanganligi natijasida IV sinf fellari 3 kichik guruhga bo'linar edi.

I kichik sinf

Bu guruhda o'zakdagi unlidan keyin [m], [n] turar edi. Infinitiv va hozirgi zamonda, ya'ni birinchi negizda bu fe'llar "i" unlisiga ega edi. Chunki [m], [n] sonor tovushlar torayishiga olib kelgan edi. Ikkinchi negizda (ya'ni o'tgan birlikda) a>o ga toraygan edi. 3 va 4 negizlarda unli umuman yo'q edi va bo'g'in yasovchi sonor tovushlarga aylandi. Bo'g'inli sonorlar german tillarida oddiy hol bo'lib qoldi va ularning oldida [u] paydo bo'lgan edi:

I asos	II asos	III asos	IV asos	
l + burun und + undosh l + m[r]+ und	a+ burun und + undal o+m(n)+und	Nul+bur.und+un > u+m(n)+und	Nul+bur.und+un > u+m(n)+un	Ma'no
bindan	band	Bundon	bunden	bog'lamoq
climbau	clamb	clumdon	clumben	chiqmoq
singan	sang	sungon	sungen	kuylamoq
findan	fand	fundon	funden	topmoq

II kichik sinf

Bu fe'llarda almashinuvli unlidan keyin [l] sonor tovushi kelar edi. Infinitiv va hozirgi zamon formasida bu fe'llar [e] tovushiga ega bo'ladi. Ikkinchi negizda ya'ni o'tgan zamon birlikda [ä] prelomeniya (sinish) natijasida [æä] ea orqali ifoda etiladigan diftongga o'tdi. Uchinchi negizda ya'ni ham "u" tovushi kiritilgan bo'lib, sifatdoshning o'tgan zamonida [o] ga o'tadi.

helpan	Healf	hulpon	holpen	yordam
meltan	Mealf	multon	molten	erimoq
sweltan	sweall	swellon	swolten	shishmoq

III kichik sinf

Bu fe'llarda o'zakdagi unidan keyin [r] sonor tovushi bor edi. Infinitiv va hozirgi zamonda ular [e] unlisiga ega edi. [e] unlisi qadimgi ingliz tili davrida keyingi [r] ta'siri natijasida [eo] diftongiga o'tgan edi. Ikkinchi negizda esa [a] unlisi [æ] ga palatallashgan edi va sinish natijasida [æa] ga o'tgan va yozilishida "ea" orqali ifoda etilar edi. 3 va 4 o'zaklarda "u" rivojlangan edi va 4 o'zakda urg'usiz pozitsiyada [o] ga o'tgan edi.

E+r+undosh	A+r+ undosh	Nul+r+ undosh	Nol + r+ unli>o	Ma'no
Eo+r+undosh	Ea+r+undosh	U+r+ undosh	+ r+undosh	
Ceofan	Cearf	curfon	Corfen	kesmoq
Beorcan	Bearc	Burcon	Borcen	qurmoq
steorfan	stearf	Sturfon	storfen	o'lmoq

IV sinf fe'llari

IV sinfda almashinuvli unidan keyin faqatgina sonorli undosh bor edi. Sonorli undoshdan keyin boshqa hech qanaqa undosh turmas edi. Infinitiv va hozirgi zamonda bu sinf fe'llarni |l| na |r| oldidan |e| unlisiga ega edi va [m], [n] oldidan esa [i] ga ega edi. Ikkinchi o'zakli umumiy german [a]>[a:] ga o'tgan edi. Uchinchi o'zakli ya'ni a>æ ga o'tgan edi va bundan tashqari o ga ega edi. IV o'zakda esa [u] kiritilgan edi [r] [l] oldidan [o] ga o'tgan edi.

e+sonor>	a+ sonor >	a+ sonor >	nul+sonor >	Tarjimasi
e+l	æ+r	æ+l	o+l	
e+r	æ+r	æ+l	o+l	
i+m	a+m	o+m	u+m	
cwelan	cwæl	swælon	cwolen	o'lmoq
stelan	stæl	stælon	stolen	o'g'irlamoq
niman	nam	nomon	numen	olmoq

V sinf fe'llari

V sinf fe'llari IV sinf fellariday unisini almashtiradi, ammo farqi ularda unidan keyin sonor undosh emas, balkim boshqa undosh kelar edi.

Infinitiv va hozirgi zamonda bu fellar [e] ga ega edi. Ikkinchi osnovada

[a]>[æ] ga bu palatallashgan edi. Uchinchi osnovada [z:] edi. To'rtinchi osnovada nul, ya'ni unli yo'q edi va keyinchalik [e] paydo bo'lgan edi.

yo+und> yo+und	a+und> æ+und	a-und>æ+und	Pul+und> e+und	Ma'no
Cnedan	cnæd	Cnædon	Cnedon	qasos olmoq
Wesan	wæs	Wæron	-	bo'lmoq
Cweðan	Cwæð	cwædon	cweden	aytmoq, demoq

[o] >[d] va [s]>[r] o'tishi Verner qonuni bo'yicha [ð]>[d] ga

VI sinf fellari.

Bu sinf fe'llari birinchi va to'rtinchi negizlarda qisqa [a] ga ega edi.

Ikkinchi va uchinchi negizlarda esa o'zakdagi unli [ō] edi.

ō>á I	ō II	ō III	ō >a IV	
bacan	boc	bocon	bacen	pishirmoq
dragan	drog	drogon	dragen	olib yurmoq

VII sinf fe'llari

Qadimgi ingliz tili davrida 7-sinfni tashkil qilgan fe'llar o'tgan zamon formalarida negizli reduplikatsiyalashtirar edi va unililarni almashtirar edi. Qadimgi ingliz davrida reduplikatsiya ko'pincha yo'qolgan edi va ikki marta takrorlangan negizlar [e] yoki [eo] ga qo'shilgan.

I	II	III	IV	Tarjimasi
Blendan	Blend	Blendon	Blendon	aralash-tirmoq
Feallan	feoll	feollon	feallen	tushmoq

7-sinfning ba'zi fe'llaridagina o'tgan zamon formalarida reduplikatsiyani (ya'ni negizning ikki marotaba takrorlanishini uchratamiz). Ammo bu fe'llarda

ham reduplikatsiya bitta undosh harfi takrorlanadi. Keyinchalik bu undosh ham tushib qoladi va o'zakdagi unli uzayadi.

læcan	leols	o'ynamoq
rædan	reord>red	maslahat bermoq
haton	heht>het	chaqirmoq

Ba'zi fellarda yuqorida ko'rsatilgan shakllardan chetga chiqish ko'rinadi: Bu qoidaga rioya qilmaslikni 4 guruhga bo'lish mumkin.

1. So'zning boshida palatal undosh ta'siridagi o'zgarishlar:

2. Infinitivda “i, j” ta'sirida sinish yoki umlaut;

Z.Unlilarning modifikatsiya natijasida o'zgarishlar;

4. Boshqa o'zgarishlar:

1) So'zning boshida palatal undosh ta'sirida o'zgarishlar III va IV sinf fe'llarida uchraydi:

III gieldan (to'lamoq), gield guldon golden

V giefan (bermoq), geaf geafon giefan

2) Sinish yoki umlaut V na VI sinfnig ba'zi fe'llarida uchraydi.

V biddan (so'ramoq) bæd bædon beden

sittan sæt sæton seten

VI swerian swor sworon sworn

hebban hof hofon hafen

3) Arap "h" undoshi infinitivda tushib qolsa, unlilarda unlilarning tushishi hodisasi ta'sirida. (I,II,V,VI,VII)

Kuchsiz fe'llarining taraqqiyoti.

Qadimgi ingliz tilida hamma kuchsiz fe'llar yasama fe'llar edi va kuchli fe'llarga nisbatan yangiroq deb hisoblanadi. Qadimgi ingliz tilida kuchsiz fe'llarning o'tgan zamon va sifatdosh II shakllari dental suffiks **-d** yoki **-t** qo'shish orqali yasalgan.

Bizgacha yetib kelgan qadimgi ingliz tiliga oid yozuv yodgorliklarda faqatgina negiz yasaydigan suffikslargina saqlanib qolgan, ammo shunga ham

qarab, qadimgi ingliz to'g'ri fe'llarniing turlanishi sistemasini asli holiga keltirishimiz mumkin. Qadimgi ingliz kuchsiz fe'llari 3 sinfga bo'linar edi:

I sinfnig negiz yasaydigai suffiksi "ian" yoki "an" edi. Shu suffiks yordami bilan ot, sifatlardan fe'llar yasalar edi. Otlardan quyidagi fe'llar yasalgan.

Demian <dom-i+an < dom

Tellan < tal+i+an talyu

Сифатлардан

Fyllan <full+i+an <full

Brædan <brad+i+an <brad

Fe'lli negizlardan kauzativ fe'llari yasalgan

Settan<sat+i+an

lædan<lad+i+an

"i" negiz yasaydigan suffiks yozuv bo'lmagan davrgacha til oldi umlautiga va agar o'zakdagi unli qisqa bo'lsa undosh ikkilanishiga olib keldi, harfning o'zi esa tushib qoldi.

"i" suffiksi bo'g'insiz edi, agar undan keyingi suffiks unlidan boshlangan "an", "ar", "i" bo'g'inli edi, agar undan keynngi suffiks undosh tovushdan boshlansa "de", "te", "do". Agar **de**, **don** suffikslari jarangsiz undoshdan keyin tursa, bu holatda ular jarangsiz bo'lib qoladi, ya'ni **te**, **ton - t**. Bu ham o'rta ingliz tiliga o'tish davrida bo'lgan. To'g'ri fe'llarni o'tgan zamon birlik hamda ko'plik formalari farq qilmaydi, farqi faqat qo'shimchalarda 1 shaxs **de – te**, 2 shaxs **des(t) - tes(t)** 3 shaxs **ðhs**.

Ko'plik **don (ton)**. Birinchi sinfnig bir necha fe'llarini olib ko'raylik:

Infinitiv va hozirgi zamon	O'tgan zamon (1 va 3 shaxs) formalari	Sifatdosh o'tgan zamon negizi	Tarjimasi
Cepan	cepte	Cepes, cept	ushlamoq
Fyllan	fyllde	Fylled	to'ldirmoq
Hieran	Hierde	hired	eshitmoq

Nerian	nerede	nered	qutqarmoq
--------	--------	-------	-----------

1 negizda, negiz yasaydigai suffiks "nerian" dan tashqari qolgan hamma fe'llarda tushib qolgan, chunki bu fe'llar o'zakda cho'ziq unliga ega, bizlar bilganimizday agar o'zakda unli cho'ziq bo'lsa "i" tushib qoladi, agar o'zakdagi unli qisqa bo'lsa shu paytda saqlanadi yoki urg'usiz "i" yoki "e" ga aylanadi.

O'zakdagi unli hamma fe'llarda til oldi hisoblanadi. Bu esa pereglasovkaning natijasidir. O'tgan zamon shakllarida negizlardagidek "i" pereglasovkaga olib kelgan.

O'zakdagi unlidan tashqari undoshdan ikki marta orttirgan va cho'ziq unlilardan keyin tushib qolgan.

Qisqa bo'g'inda "r" dan keyin "e" ga o'tgan. Jarangsiz undoshlardan keyin "de" > "te" ga o'tgan. Ikki sonor tovushlar uchinchi undosh oldidan osonlashtirdi, ya'ni fyllde>fylde, clynnde>clynde.

Sifatdoshning o'tgan zamonida "r" huddi shunday o'zgarishlarga olib keladi, ammo ko'pincha u "e" ga o'tib saqlanadi.

Mas: **hiored** va hokazo.

2 sinf fe'llari

O'zak	Infinitiv	O'tgan zamon birlik	Sifat o'tgan zamon	Ma'no
Andswar	Andswar+i-an	Andswar+o+d	Andswar+o+d	
Hat	Hat+i+an	Hat+o+de	Hat+o+d	yomon ko'rmoq
Luf	Luf+i+an	Luf+o+de	Luf+o+d	sevmoq
wundor	Windr+i+an	Windr+o+de	Windr+o+d	hayron qolmoq

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek o'zak hamma shakllarda ham o'zgarmagan, "negiz yasaydigai " "i" suffiksi infinitiv va hozirgi zamonda saqlangan. 3 shaklda va a negizlarda esa "o" ga kelgan. Bu II sinf "i" dan farq qiladi.

3 sinf fe'llari

Haf	haffan	hæfde	Hæf-d	ega bo'lmoq
Lif	liffan	lifde	Lif-d	yashamoq
Sag	secgan	sægde	Sæg-d	o'tirmoq

Passiv shakllari ham o'rta ingliz tili davriga kelib hosil bo'ldi. Ma'lumki passiv shakllari faqatgina o'timli fe'llar bilan yasalishi mumkin. Shunday qilib, passiv shakli o'rta ingliz tili davriga kelib **to be + sifatdosh II** shakllari orqali yasala boshladi. O'rta davrda perfekt ma'noni ifodalagan passiv shakldagi ba'zi holatlar hozirgacha ham saqlanib qolgan. Masalan: **He is gone - u ketdi.**

Shall, will fe'llari infinitiv bilan birikib kelgan holatda o'zlarining modal ma'nosini yo'qotib, grammatikalashuv jarayoni natijasida kelasi zamoni ko'rsatuvchi shaklga aylandi.

O'rta ingliz tili davrida, shuningdek **continuous** shakli ham paydo bo'ldi. Ya'ni ushbu shakl nutq momenti paytida davom etayotgan ish-harakatni ifodalash

uchun qo'llanila boshlandi va **to be + sifatdosh I** shakli orqali yasalar edi. Ushbu **beon + sifatdosh I** qadimgi ingliz tili davrida ham davomiylik holatini ifodalab kelgan.

(O.E) ealle þa woruld on hiora āgen gewill onwendende wæron neah C wintra (they all were (destroyers) destroying the world).

M.E) Syngynge he was or floytynge al the day. (He was singing or playing the flute all day long)

Perfect Continuous shakli o'rta ingliz tili davrida juda kam uchraydi.

We hanl ben waytinge al this fourteninght (We have been waiting for fournight (two weeks)).

Mavzuga oid savollar.

1. O'rta ingliz tili davriga kelib ot kategoriyasida qanday muhim o'zgarishlar ro'y berdi?
2. Rod kategoriyasiishi yo'qolishiga asosiy sabablar nimada edi?
3. O'rta ingliz tili davriga kelib olmosh kategoriyasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
4. O'rta ingliz tili davrida ko'rsatish olmoshlari qanday ko'rinish oldi?
5. O'rta ingliz tili davrida fe'ldagi shaxs-son qo'shimchalarining yo'qolishini qanday izohlash mumkin?
6. O'rta ingliz tili davrida fe'l tuslanishi qanday o'zgarishlarga uchradi?

Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi gaplarni o'qing, ularda ishlatilgan ot, fe'l va sifatlarga e'tibor bering. Ularning semantikasi va kombinatorikasiga e'tibor qarating.

1. *The army of the queen hath got the field* (Sh.II.H.6.1.4.1.)
2. For no *familie* there lacketh any kinde of victualles (More, Utopia, p.109)
3. And now Catholicke party was much weakened (Hayward, Annals, p.24)
4. Such a field as this, where stained nobility lies trodden on (Sh.H.4, V, 4, 13)

Hozirgi ingliz tili davri (18 -19 asrlar)

1. *The crowd* was already thinning out considerably – some bound for the theatres, some to their clubs (S.Carrie, p. 63)
2. *The company* was then complete, 21 in all (M.P., p. 109)
3. Kirby's *gang* is going to raise hell about any wage cuts (T.W.Us., p. 48)
4. A new *generation* is growing up un our midet, a generation actuated by new ideas and new principals (M.R.S.S., p.59)
5. *The government* hopes to confine the strike to the Transvaal and are created with having the situation well in hand (Wendt, S. 33)
6. *The committee* has pronounced for a continuance of the “tyrany” and propose to extend, rather than to curtail or abolish the powers of the Lord Chamberlian's office (ibid., S. 33)
7. The Megarean sects were founded by Euclid not the mathematician and were the happy inventors of logical syllogism, or the art of quibbling (Bain, p. 301)

Yangi ingliz tili davri. Ingliz milliy tilining hosil bo'lishi va rivojlanishi.

Yangi ingliz tilining sistemasi

Reja.

1. Yangi ingliz davrining tarixiy ocherki.
2. Ingliz adabiy tilining rivojlanishi.
3. Yangi ingliz tili davriniig orfografik tuzilishi.
4. Unlilar sistemasidagi o'zgarishlar (unlilarning buyuk siljishi) “The Great Vowel Shift”

Tayanch iboralar: Til normasi, unlilarning buyuk siljishi, sirg'aluvchi undosh tovushlar, undoshlar tushishi, assimilatsiya.

Har bir til unda gapiruvchilar qanday past ijtimoiy darajada bo'lmasin, tarixiy sharoitning o'zgarishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan bog'lagan holda yuqori darajada rivojlangan va takomillashgan tilga ega bo'la oladi. Konkret tillar tipologiyasidagi struktural o'zgarishlar juda sekin, bilish qiyin bo'lgan yangi elementlarning barcha til bosqichida hosil bo'lgan va kelgusi taraqqiyotida ichki sabablar va tashqi sharoitlar ta'sirida to'planuvchi jarayonlarni

aniqlashga yordam beradi. Biroq, xalqlar va tillarning rivojlanish tarixida ba'zan shunday tarixiy sharoitlar vujudga keladi-ki, ularning ta'sirida alohida tillarning ijtimoiy funksiyalari tobora kengaya boradi. Tillar tezlikda qayta qurilishga ega bo'ladi, yangi sharoitga moslashadi va bunda tillardagi tipologik o'zgarish jarayolari shu sharoitda o'z tipologiyasida unchalik ko'p o'zgarishlarga uchramasa ham ancha ko'zga ko'rinib qoladi.

Tillarning ijtimoiy funksiyasi ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitlarning murakkablashuvi bilan bog'liq ravishda kengaya borishi tilshunoslar tomonidan bir necha bora ta'kidlab o'tilgan ijtimoiy hodisadir². Tillardagi bunday o'zgarishlarga ham lingvistik, ham ekstralingvistik faktorlar sabab bo'lishi mumkin. Bu hol qiyoslanayotgan tillarning har ikkalasida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, ingliz tili tarixidagi fransuz tili ta'sirida bo'lgan o'zgarishlar ingliz tilining leksikasigagina emas, balki morfologik va sintaktik hodisalarda ham ko'zga tashlanadi. O'zbek tili tarixida arab va fors tillarining ta'siri ham huddi kechagidek, o'zbek tili leksikasida, ayrim hollarda esa fonetika va hatto sintaksisda ham ko'zga tashlanib turadi. Bu faktorlar qiyoslanayotgan tillarning sintaksisida sezilishi o'sha faktorlarning ancha salmoqli ekanidan dalolat beradi.

Bosh bo'laklar tartibida sodir bo'lgan o'zgarishlar

Ma'lumki, sintaksis tilning ancha mustahkam tizimga ega bo'lgan qismidir. Shu bois o'rta asrlardagi ingliz tilining sintaksisi va uning tarkibiy komponentlari bo'lgan gap bo'laklari va ularning gap strukturasida tutgan o'rni o'rta asrlar davrida qadimgi davrdagi holatidan unchalik ko'p o'zgarishlarga uchramadi.

Ko'pincha tilshunos olimlar ingliz tilining o'rta asrlar davomida fransuz tili ta'sirida ko'p o'zgarishlarga uchragani haqida gapiradilar. Bunday fikrni tilning morfologiya qismi haqida gapirilsa, ehtimol o'rinli bo'lar, lekin tilning sintaksisida katta o'zgarishlar bo'lishi uchun fransuz tilida aholining barcha qatlamlari gaplashgan bo'lganda, ehtimol, qandaydir o'zgarishlar bo'lishi mumkindir. Biroq Angliyada fransuz tili hukmron doiralar tilidagina qo'llanilgan bo'lib, asosiy

² Общее языкознание формы существования и функции языков. М. Наука, 1970, 213стр.

omma o'rtasidagi muloqot faqat ingliz tilida olib borilgan. Umumiy muloqot tili bo'lgan ingliz tiliga bu hol unchalik katta ta'sir o'tkazganiga ishonish qiyin³.

So'z turkumlari tizimida mavjud bo'lgan qo'shimcha (fleksiya)larning o'zgarishlar tufayli so'z tartibi bajaradigan funktsional vazifalarda ham ma'lum o'zgarishlar o'rin oldi. Agar so'z o'zagida morfologik elementlar o'z o'rnini topmagan, ya'ni so'z morfologik jihatdan shakllanmagan bo'lsa, uning boshqa bo'laklarga bo'lgan munosabati yordamchi vositalar, ya'ni analitik formalar, yoki predloglar, ko'makchilar, yo bo'lmasa so'z tartibi orqali ifodalanadi. Shu tarzda so'z tartibi ham sintaktik munosabatlarni ifodalovchi vositalardan biriga aylanib boradi. Fleksiya (qo'shimchalarning) qisqarishi morfologik o'zgarishlar gap tarkibining o'zgarishiga va so'z birikmalaridagi komponentlarning o'zaro munosabatlarining o'zgarishiga olib keldi.

Qadimgi davrda to'qri so'z tartibi (SQP) tarkibli gaplarda ko'proq qo'llanilgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib to'qri so'z tartibi (SQPQO) tuzilishdagi gaplarda va (Attr.QN) tuzilishdagi so'z birikmalarida ko'proq uchray boshladi. Shu tarzda sintaktik munosabatlar so'z tartibi orqali ifodalanadigan hollarda gap tarkibidagi so'zlarning joylashuvi qat'iy tus ola boshladi. Sintaktik munosabatlar yordamchi vositalar, analitik formalar, predlogli birikmalar orqali ifodalangan hollarda esa so'z tartibida ma'lum darajada erkinliklar hali saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Masalan:

1. **The childe** was given a book...

Bolaga kitob berdilar...

2. To Caunterburry they wende...

Ular Kenterberriga ketdilar...

Qadimgi davrdagi an'anaga ko'ra ayrim o'rin va payt ravishlari ravishlari gap boshida kelganda teskari so'z tartibi haliyam saqlanib turgan edi. Masalan:

1. **Thanne longenfolk** to goon on pilgrimages.

O'shandan keyin odamlar hajga borishga *shoshila boshlaydilar*.

³ Bu haqida qarang; B.A.Ilyish, Ko'rsatilgan asar, 259 bet.

Sintetik so'z tartibi o'rta asrlar davrining oxirigacha nutqda kamroq ishlatilsada, ma'lum darajada saqlanib qoldi. Masalan:

1. **She** hir love him **graunted**.

U **qiz** o'z muhabbatini unga (yigitga) **had'ya etdi**.

Qadimgi ingliz tilida bo'lganidek, o'rta asrlar ingliz tilida ham gapning egasi asosan, ot va olmosh (kishilik va ko'rsatish)lar orqali ifodalangan. Masalan:

1. The kyng listned the savve.

Qirol hikoyani tingladi.

2. So hadde I spokan with hem everychon.

Men ularning har biri bilan gaplashib bo'ldim (chiqdim).

3. This was a fals cherl and a fals justice!

Bu yolg'onchi odam va yolg'onchi hakam edi.

Qadimgi davr ingliz tilida bo'lgani kabi o'rta asrlar davrida qo'llanilgan ingliz tilida ham kesim o'z tuzilishi va ifodalagan ma'nosiga ko'ra fe'l-kesim va ot-kesimga ajratilgan. Fe'l kesimlar sodda va qo'shma tuzilishga ega bo'lgan. Sodda fe'l-kesim faqat fe'lning o'zagidagina hosil qilingan. Masalan:

1. com neer, and taak youre lady by the hond.

kel yaqinroq va xonimning ushla qo'lidan.

2. I speke in prose.

men proza (usuli)da gapiraman.

Qo'shma fe'l-kesimga misollar:

1. eal sceal beon ther thenne cuth.

hamma narsa ma'lum bo'lishi kerak u yerda.

2. i ne can ne mai tellen alle the wunder ne alle the pines.

men sanab bera olmayman va bunga jur'at qila olmayman barcha yovuzliklarni va azoblarni.

qo'shma ot-kesimga misollar:

1. ich am elder then ich wes.

men (avvalgidan) kattaroqman.

2. for Januarie was bicome hir knight.

zero, Yanuare uning zobiti bo'lib qolgan edi.

3. I was of hir felawshipe anon.

bundan buyon men uning sheriklardan biriga aylanib qolgan edim.

Ikkinchi darajali bo'laklar tarkibidagi o'zgarishlar

Qadimgi ingliz tilida bo'lganidek, to'ldiruvchilar o'rta asrlar tilida ham vositali va vositasiz to'ldiruvchilar toifasiga bo'linar edi. Binobarin, vositali to'ldiruvchilar predlogli va predlogsiz holatda ishlatilishi mumkin edi. Vositasiz to'ldiruvchilar bosh kelishik shaklidagi otlar va tushum kelishigidagi olmoshlar bilan yoxud boshqa olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin edi. Vositali predlogsiz to'ldiruvchilar ham yuqorida zikr etilgan kelishik shaklidagi otlar va olmoshlar orqali ifodalanishi mumkin bo'lib, ko'pincha vositasiz to'ldiruvchilar bilan birikib kelishi ham mumkin edi. Masalan:

1. thine blisse ne mei no wiht understonden.

sening olijanoblingga hech kim qasd qilolmaydi.

2. ye seken lond and see for your winninges.

mol-dunyo uchun siz yeru-suvni kezib chiqasiz.

Predlogsiz vositali to'ldiruvchilarga misollar:

1. me thinketh it acordaunt to resound, to telle you al the condicioun of ech of hem

Menga ularning har birining ahvoli haqida sizga aytsam ma'qul bo'ladi.

2. wo was his cook, but if his sauce were poynaunt and sharp

oshpazga yomon bo'l(a)di, agar u tayyorlagan sous mazali va o'tkir ta'mli bo'lmasa.

Endi predloglar vositasida kesimning ma'nosini to'ldirib kelayotgan to'ldiruvchilarga misollar beramiz:

1. and the king Vortiger of hire come was war

qirol Vortiger ham eshitdi ularning kelishi haqida.

2. and to Hangest and his cnihtes hr gef riche geftes

ham Xengestga. ham uning askarlariga u hadya qildi katta sovg'alar.

3. and at a knight that woll I first biginne
va ritsarlar haqida unda men avval boshlayman.

O'rta asrlarda qo'llanilgan ingliz tilida aniqlovchilar asosan sifat bilan, so'ngra ot (bosh va qaratqich kelishigidagi), olmosh (egalik, ko'rsatkich va so'roq olmoshlari) va ba'zan predlogli sintaktik birikmalar orqali ifodalanishi mumkin edi.

Masalan:

1. smale fowles maken meljdye
mayda qushchalar kuy yaratadilar.
2. and let me tellen al my tale. I preye
barcha bo'lgan voqealarni aytib berishimga ruxsat bering.
3. this gentil duk doun from his courser sterte
bu oliy martabali gertsog tushdi uchqur otidan.
4. he nas but seven yer old
u endi yetti yoshga to'lgan edi.
5. full worthy was he in his lordes were
qahramonlik ko'rsatdi u o'z xo'jayini boshlagan jangda.
6. swelleth the brest of Arcite
gupillab urib turibti yuragi Arsitaning.

O'rta asrlar ingliz tilida holning bajaradigan vazifalari va uning ifodalanish yo'llari qadimgi davrdagidan juda kam o'zgarishga uchradi. Bu davrda hol ravishlar, predlogli birikmalar, va ba'zan predlogsiz otning o'zi bilan ham ifodalanishi mumkin edi. Masalan:

1. I repente fulle sore
men juda qattiq afsuslanyapman.
2. his deope wounden bledeth fast
uning chuqur yaralari kuchli qonayapti.
3. at night were come into that hostelre wel nyne and twenty in a companye
tunda bu mehmonxonaga yigirma to'qqiz kishi bir bo'lib keldilar.
4. for he was y-come from his viage
u yaqinda ekspeditsiyadan qaytib kelgani uchun.

5. as he was wont from veer to veer

yildan yilga u ko'nikib qolgani uchun.

O'rta asrlardagi ingliz tilida izohlovchilar bir so'z bilan, ya'ni faqat o'zing o'zi bilan yoki butun boshli uzun so'z birikmalari bilan ham ifodalanishi mumkin edi. Masalan:

1. here in the temple of the Goddesses Clemence we han ben waytinge al this fourtenight

bu yerda, Shafqat xudosi ehromida, biz ikki haftadan buyon kutib turibmiz.

2. how asseged was Ipolita, the faire hardy quene of Scithia

qanday qiyin ahvolda qoldiya Ippolita, Skifiyaning go'zal va shijoatli hukmdori.

3. the bisy larke, messenger of day, salueth in hir song the morwe gray sertashvish to'rgay, kunning xabarchisi, xira tongni o'z qo'shiqlari bilan qutlamoqda.

O'rta asrlar ingliz tilida undov so'zlar hozirgi davrdagidek, asosan, gap boshida tinglovchiga murojaat tarzida qo'llanilgan. Masalan:

1. herkneth to me, gode man, wiues. maydnes. and alle men, of a tale, that ich you wile telle

quloq tuting, ey yaxshilar, xotinlar, qizlar, barcha-barchangiz, sizlarga bir hikoya aytib beraman.

2. the child saed: "Justice, held thi mouthe"

bola dedi: «Ey, sudya, og'zingni yum".

Bu davrda kirish so'z va kirish iboralari sifatida ko'pincha modal so'zlar ishlatilar edi.

1. and sikerly she was of great disport

va albatta, u juda quvnoq qiz edi.

2. but certainly no word ne writeth he

lekin, shubxasiz, u hech nima yozmagan.

Sintaktik aloqalarni ifodalashdagi o'zgarishlar

O'rta asrlar ingliz tilida sintaktik munosabatlarni ifodalashda qadimgi davrdagiga nisbatan sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Bunda qadimgi davr tiliga xos bo'lgan vositalarning ayrimlarining qo'llanilishi sezilarli darajada kamayib, qadimgi davr tilida kamroq uchraydigan usullarning tez-tez ko'zga tashlanish hollari kuzatiladi. Ayrim hollarda esa qadimgi davr tilida umuman qo'llanilmagan vositalarning o'rta asrlar tilida qo'llanish hollari tadqiqotchi diqqatini o'ziga jalb qiladi. Albatta, bu o'zgarishlardan xabardor bo'lish va bu haqidagi ma'lumotlardan ingliz tilini o'rganish va o'rgatish jarayonida qo'llash o'rganuvchi uchun ham, o'rgatuvchi uchun ham foydadan holi bo'lmaydi. Umuman olganda, o'rta asrlar tilida qo'llanilgan sintaktik munosabatlarni ifodalash vositalaridan foydalanish quyidagi ko'rinishda tasavvur qilinishi mumkin.

Moslashuv. Moslashuv usulining o'rta asrlarga kelib qadimgi davrdagiga nisbatan kamroq qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Bu holni quyidagi materiallarda ko'rish mumkin. Aniqlovchi rolida qo'llanilgan sifat yoki olmoshning aniqlanmish ot bilan moslashuvi hollari kamayib, o'rta asrlar oxiriga kelib umuman yo'qolib ketdi. Bu holning asosiy sababi morfologik tizimning, xususan, ot, olmosh, xususan, ko'rsatish olmoshi va sifatlardagi kelishiklar qo'shimchalarining avval qisqarib, keyinchalik umuman yo'qolib ketishi bilan izohlanadi. Bu davrga kelib sifatlar va ko'rsatish olmoshlari rod va kelishiklar bo'yicha turlanish xususiyatini yo'qotib, faqat kuchli turlanishdagi sifatlar va olmoshlarda aniqlanmish ot bilan faqat sonda moslashish xususiyati saqlanib qoldi. Masalan:

1. sharpe speres stromge
o'tkir qudratli nayzalar;
2. fresshe floures
yangi (uzilgan) gullar;
3. monthes glade
quvonchli oylar.

Biroq Choserning she'rlarini diqqat bilan kuzatilsa sifatlarning ko'plik shaklini ifodalovchi "-e" qo'shimchasi bora-bora talaffuz etilmay qolishi va

yozuvda ham o'z aksini topa olmay qolganini kuzatish mumkin. Masalan:

1. In May, that mother of monthes glade,
That fresshe floures, blewe, and whyte, and rede,
Ben quike agayn, that winter dede made.

Quvonchli oylarning onasi bo'lgan may oyida qish so'ndirib qo'ygan sariq, oq va qizil rangdagi yangi gullar yana qayta tiriladilar.

Yuqorida keltirilgan misollarda so'z oxirida ajratib ko'rsatilgan "e" harfi talaffuz etilmaydi, demak, sifat bilan ot orasidagi moslashuv qam asta-sekin yo'qola boradi.

Boshqaruv. O'rta asrlarga kelib boshqaruv usulining sintaktik munosabatlarini ifodalash vositasi sifatidagi ahamiyati kamaymadi. Qadimgi davr ingliz tilida qo'llanilgan kelishik qo'shimchalari o'z funksiyasi va ma'nosini deyarli sezilarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi.

Bitishuv. O'rta asrlar tilida bitishuv usuli ham moslashuv kabi unchalik katta o'zgarishga uchramadi va aksincha, moslashuv usuli qisqargan hollarda, uning qisqarishi hisobiga, bitishuv usulining qo'llanishi kengaya bordi. Qadimgi davrda aniqlanmish ot bilan rodda, kelishikda va sonda moslashgan sifatlar endi, u ko'rsatkichlar qisqargani bois ot bilan moslashish xususiyatini yo'qota boshladi. Birlik sonda "e" qo'shimchasi bilan tugaydigan sifatlar endi ko'plik shakli bilan bir xil shaklga kirib qola boshladi. Natijada bitishuv vositasi ularning aniqlanmish ot bilan bog'lovchi yagona sintaktik usul sifatida qo'llanila boshladi. Quyidagi misollarda sifatlarning son kategoriyasi ifodalanmagan. Shu bois ularning aniqlanmish ot bilan bilan bo'lgan bog'lanishi bitishuv orqali ifodalanadi. Masalan:

1. his schoures sote.
uning yoqimli yomg'irlari.
2. straunge strondes.
begona qirg'oqlar.

So'z tartibidagi umumiy o'zgarishlar

O'rta asrlarda qo'llanilgan ingliz tilida so'z tartibidagi o'zgarishlar tilning

grammatik tizimidagi o'zgarishlarga mos ravishda rivojlana bordi. Bu davrga kelib so'z tartibining ahamiyati qadimgi davrdagi so'z tartibiga nisbatan ancha muhim ahamiyat kasb eta bordi. Qadimgi davrda morfologik qo'shimchalar orqali ifodalangan ko'pgina tushunchalar (otlarning kelishik qo'shimchalari, fe'lning zamon kategoriyasini ifodalashda qo'llaniladigan qo'shimchalar va hokazo) endi so'z tartibi yordamida ifodalansa bo'ladi.

Masalan, tushum kelishigi (Dative) orqali ifodalangan tushunchalar fe'l-kesimning ketidan albatta to'g'ri (vositasiz) to'ldiruvchining joylashtirilishi orqali ifodalaninshi yo'lga qo'yila boshlandi. Gapda eganing kesim oldida kelishi mustahkamlanib odat tusini ola boshladi va bu hol gapning grammatik belgisi sifatida shakllana boshladi. Qadimgi davrga xos bo'lgan "P+S" , ya'ni "kesim+ega" tarzida qurilgan gaplarning yozma va og'zaki nutqda qo'llanilishi borgan sari sezilarli darajada kamaya bordi. Masalan, XVIII asr boshida yaratilgan "King Horn" poeziyasida ana shunday tarzda teskari tartibda tuzilgan gap tartibi umuman uchramaydi. Biroq gap boshida holning qo'llanishi hollari haliyam saqlanib qolaverdi. J. Choserning qalamiga mansub bo'lgan yozma yodgorliklar (asarlarda) bunday gaplar tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

Masalan:

1. so priketh hem nature
shunday yaratgan tabiat ularni
2. so hadde I spoke with hem everychon
shu tarzda ulgurdim men ularning har biri bilan so'zlashishga
3. well coude he sette on hors
yaxshi o'tira olardi u ot ustida.

Ushbu gaplarning barchasida hol (ravish holi) gap boshida, ya'ni eganing oldida kelayapti. Aglyutinativ tillarda bo'lgani singari kesimning gap oxirida kelish hollari (bu hol sintetik hol deyiladi) qadimgi davrdagidan ko'ra kamroq uchray boshlaydi. XVI asr boshlarida yaratilgan Richard Rollning (Richard Rolle de Hampole) asarlarida ana shunday sintetik tartibning qo'llanilishi 4 % hollarda uchraydi. Bosh gapda ana shu hollarning uchrashiga misollar keltiramiz:

1. and in his arms he hem alle up hente
o'z quchog'iga u ularning barchasini quchib oldi.

2. she hir love him graunted
u qiz o'zining sevgisini sovg'a qildi unga.

Bu hol ergash gap tarkibida ham uchrashi mumkin. Masalan:

1. and of this cry they holde never stenten, til they the reynes of his brydel
henten

va ular bu xayqiriqni to'xtatishni, uning otining tizginidan tutmagunlaricha
istamadilar.

Qadimgi ingliz tiliga xos bo'lgan sintaktik xususiyatlardan biri aniqlovchi (sifat)ning aniqlanmish oldidan kelishidir. Ana shu holat o'rta asrlarda qo'llanilgan ingliz tilida ham saqlanib qoldi. Ayrim hollardagina, bu ham bo'lsa fransuz tilining ta'sirida bo'lgan bo'lsa kerak, aniqlovchi aniqlanmish otdan keyingi o'rinni egallaydi. Masalan:

1. heir male
merosxo'r ota tomonidan bo'lgan .

2. court martial
harbiy sud

3. knight ergapt
sarguzashttalab ritsar.

4. cousin german
amaktivachcha

O'rta asrlarga kelib so'z tarkibidagi yordamchi ko'shimchalarning yo'qola borishi tufayli o'sha so'zning gap tarkibidan munosib joy olishining ahamiyati tobora orta bordi. Bu borada o'rta asrlar ingliz tili qadimgi va yangi davr (New English) ingliz tili o'zrtasida o'rtahol vaziyatni egallaydi. Chunki bu davrda so'zning gap tarkibidagi o'rni hali yangi davrdagidek qat'iy emas, lekin qadimgi davrdagidek erkin ham emas edi. Bu davr uchun xos bo'lgan so'z tartibining xususiyatlarini Choserning "Kenterberi hikoyalari" asaridan olingan namunalar bilan izohlash mumkin:

Whan that Aprille with his schoures sote
The droughte of Marche hath perced to the rote
And bathed every veyne in swich licour,
Of which vertu engendred is the flour...

Aprel o'zining yoqimli yomg'irlari bilan martdagi qurg'oqchilikning tagtomirigacha to'ydirib sug'organda uning bu karomatidan gullar paydo bo'ladi.

Ushbu gapda gapning egasi rolida kelayotgan *Aprille* so'zi va *the droughte* hamda *every veyne* kabi vositasiz (to'g'ri) to'ldiruvchilar hech qanday qo'shimchalar yordamisiz o'zining gapda tutgan o'rni (o'timli fe'ldan keyingi o'rin) bilan o'zining sintaktik vazifasini bajaryapti. Lekin bu hol yuqorida zikr etilganidek, hali yangi davr ingliz tilidagidek mustahkam pozitsiyada emas. Chunki birinchi to'ldiruvchi *the droughte* kesim *hath perced* oldida turibdi. Ikkinchi to'ldiruvchi *every veyne* esa o'zi bog'liq bo'lgan *bathed* kesimdan keyingi o'rinni egallagan. Oxirgi qatordagi gapda esa ega (*flour*) kesim (*engendred*) dan keyingi pozitsiyani egallagan. Bu ergash gapdagi fe'l-kesim majhul nisbatda qo'llanilgani bois, undan keyin kelayotgan ega rolidagi otni to'ldiruvchi deb qabul qilinishiga hech qanday asos yo'q.

Yangi davr ingliz tilida bunday so'z tartibi mutlaqo ko'zga tashlanmaydi. Umuman olganda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan sintetik va teskari so'z tartibi yuqorida zikr etilgan asosiy model hisoblangan (S+P+O) modelidan biroz chekinish kayfiyatini ham ko'rsatib turibdi. Shu bilan bir qatorda shu davrda gapning har bir bo'lagi uchun ajratilgan maxsus o'rin mustahkamlanib, so'z tartibining qat'iylashuv jarayoni tezlay boshlagani ham yaqqol ko'zga tashlanadi; kesim oldidagi o'rin ega uchun, kesimdan keyingi o'rin esa to'ldiruvchi uchun maxsus tayinlangan joy bo'lib qola boshladi. Ushbu normadan chekinish holatlari asosan, holning, ayrim o'rinlarda esa to'ldiruvchining gap boshiga o'tkazish bilan xarakterlanadi.

Gapda so'z tartibining asosiy sintakik vosita sifatidagi roli yangi davr tilida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Bu davrga kelib ikki tarkibli shaxsli gaplarning barcha kommunikativ turlari (ya'ni darak, so'roq, undov, buyruq mazmunidagi)

turlarida soʻz tartibining qatʻiy bir tizimda mustahkamlanishi kuzatiladi. Bu davr uchun toʻgʻri soʻz tartibini darak gaplarda qoʻllash oddiy anʻanaga aylangan boʻlsa ham, ayrim oʻrinlarda bu taomildan chekinish hollari kuzatiladi. Bunday hol asosan ikki holatda roʻy beradi:

a) gapning bosh boʻlaklari tizimidagi inversiya (teskari soʻz tartibi) holati;

b) soʻz birikmalarida hokim soʻz bilan tobe soʻzning oʻrin almashtirishi; Inversiya holati quyidagi oʻrinlarda yuz berishi mumkin edi:

c) agar gap boshida oʻrin yoki payt ravishi kelib ega oʻrnini egallab olgan boʻlsa;

masalan:

1. **Here** *comes she* to me.

2. **Now** *shalt thou* be moved.

Bu gaplarda inversiya holati gapning egasi olmoshlardan ifodalanganligi tufayli qoʻllanilmoqda. Bunday holatni quyidagi vaziyatlarda ham kuzatish mumkin:

a) **that, this** koʻrsatish olmoshlari orqali ifodalangan toʻgʻri (vositasiz) toʻldiruvchilardan soʻng:

But who directed you thither?

That *did my man*, sir.

This *did* / fear.

b) bogʻlovchi rolida qoʻllanilgan ravishlardan soʻng:

Thus *have I shanned* the fire for fear of burning;

Yet but can *I not* but *worthily admire*;

And **then** *would they* straight back him, in opinion

c) inkor maʼnosini ifodalovchi va cheklash maʼnosini bildiruvchi ravishlar va ulardan hosil boʻlgan birikmalardan soʻng:

Never *came trouble* to my house;

Never *had lady* more watchful officers.

Bunday xarakterdagi inversiya hodisasi hozirgi zamon tilida ham saqlanib

qolgan. Masalan:

Never *have I seen* such a beautiful painting.

Bunday gaplarning yangi davr boshlarida qo'llanilgan inversiyadan farqi shuki, u davrda **Present** va **Past Simple** dagi fe'l shakllarida to'la inversiya holati o'rin oladi. Chunki "do" yordamchi fe'li XVII asr oxirlariga kelibgina inversiya qo'llaniladigan emfatik konstruktsiyalardan mustahkam o'rin oladigan bo'ldi.

Masalan:

1. Not a syllable *did she utter*;

2. Only now *did she understand* what had happened to her mother.

Yangi davrning dastlabki yillarida gapning ikkinchi darajali bo'laklari tarkibida ham quyidagi hollarda ayrim inversiya holatlari kuzatiladi.

1. "**aniqlovchi + aniqlanmish**" birikmalari guruhida:

a) egalik (qaratqichli) olmoshlarning sifatdan keyin qo'llanishida; (goog my sausie companion);

b) **of** predlogi bilan hosil qilingan aniqlovchining aniqlanmish otdan ajralib qolgan hollarda. Masalan:

canst though shew me, of a gentleman, one signior Bobadilla, where his lodging is (where the lodging of a gentleman, one signior Bobadilla, is).

2. "**kesim + ega**" birikmalarida guruhida:

a) ega bilan kesim o'rtasida olmoshda xn ifodalangan to'ldiruvchi kelgan holatlarda; Masalan: I me recommend right humble unto your good grace;

b) ko'makchi (poslelog) dan keyin kelgan olmoshdan ifodalangan to'ldiruvchidan keyin: I had them take away you.

3. "kesim + hol" guruhida:

a) **never, ever, just always** kabi ravishlar hozirgi davrdagidek yangi davrning boshlarida asta sekin fe'lning analitik formalarida yordamchi fe'l bilan asosiy fe'l o'rtasiga suqilib kira boshlaydi, lekin ayrim hollarda bu qoidadan chekinish hollari ham kuzatiladi. Masalan:

1. It's not only the best that erer you heard (quoi ever heard).

2. He always be intitled to my respect (he will always be intitled).

Umuman olganda olmoshlardan va ancha qadimgi davrda hosil bo'lgan ravishlardan ifodalangan ikkinchi darajali gap bo'laklari boshqa so'z turkumlaridan ifodalangan gap bo'laklariga qaraganda ancha keyinroq o'zlarining muhim o'rinlariga ega bo'ldilar.

Ingliz milliy tilining XVI va XVII - asrlarning boshidagi taraqqiyoti

XVI-asr Angliyada kapitalizm ayni bir vaqtda xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida, sanoat va qishloq xo'jaligida, savdo va dengiz kemasozligida ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda edi. XVI-asr Angliya uchun kapitalistik manufakturaning gullab yashnagan, agrar o'zgarishlar boshlangan, ingliz savdogarlari okeanlarni keza boshlagan, dastlabki ingliz mustamlakalariga asos solina boshlangan davr edi.

Angliya xalq xo'jaligining yuksalishiga va uning kapitalistik asosidagi qayta qurilishga ikkita tarixiy faktor yordam bergan edi: 1) buyuk jug'rofiy kashfiyotlar; bu kashfiyotlar natijasida Angliya eski dunyo bilan yangi dunyo o'rtasidagi yangi jahon yo'llarining markazi bo'lib qolgan edi va 2) Angliyada feodalizmning yemirilib ketganligi, krepostnoy huquqning ilk yo'qotilganligi, movut sanoatining rivojlana boshlaganligi, mamlakatning juda tez markazlashishi va ko'plab feodal tabaqalarning yangidan tashkil topayotgan burjuaziya bilan yaqinlasha boshlaganligidir.

Movut sanoati XVI asrga kelib Angliyaning "milliy sanoatiga" aylandi. Aholining yarmidan ko'prog'i shu sanoat bilan band edi. Movut to'qish bilan shaharlardagina emas, balki qishloqlarda ham ko'p shug'ullanar edilar. Movut sanoatining ko'proq tarqalgan shakli manufaktura edi.

XVI asrda Angliyada "tarqoq" manufakturalarning soni yana ham ko'proq edi, chunki buning natijasida butun-butun qishloqlar yo'q bo'lib ketayotgan edi. Ko'plab odamlar shaharlarga ish axtarib ketishga majbur edilar. Yana o'sha XVI-asr oxiridagi manbaning birida shunday deyiladi; "Movutchilar minglab odamlarga ish berar va bu bilan o'zlari juda boyib ketar edilar" deyiladi.

XVI asrda Angliyada sanoatning boshqa tarmoqlaridan konchilik temir, qo'rg'oshin, mis qazib chiqarish ancha rivojlangan edi. Nihoyat XVI asrda

Angliyada ishlab chiqarishning o'rta asrlarda bo'lmagan yangi turlari – shisha sanoati, sovun ishlab chiqarish, porox yasash, yozuv qog'ozi ishlab chiqarish va boshqalar tez rivojlanib bormoqda edi. Ishlab chiqarishning bu turlari ham manfaktura shaklida edi. Shu voqealar hammasi Angliya madaniyatining va ingliz tilining taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Ijtimoiy hayotning o'zgarishi bilan ingliz tilida yangi so'zlar paydo bo'la boshladi, ingliz tili yanada boyib bordi. Hamma asarlarda London shevasi ishlatila boshlandi. qolgan shevalar esa og'zaki shaklda saqlanib qoldi.

XVI asr Angliya tarixida kapitalizmning uygonish asri bo'lish bilan birga ingliz madaniyatining g'oyat gullagan davri ham edi.

XVI asrda ayniqsa ingliz adabiyoti bilan teatri gullab yashnadi.

Frensis Bekon (1561-1626) falsafaning yangi yunalishini empirizmning asoschisi bo'ldi. Shuni aytib o'tish kerakki, XVI asr nafaqat Angliyada, balki Yevropaning boshqa mamlakatlari adabiyoti, san'atning rivojlanish davri hisoblanadi. Ana o'sha davrda ingliz adabiyoti yangi va yangi asarlar bilan boyigan edi. Shular ichida butun jahonga mashhur buyuk dramaturg Vilyam Shekspir (1564- 1616) edi. Shekspirning zamondoshlari Kristofer Marlo, Ben Djonson, Djon Fletcher, Spenser va boshqalar ingliz tilining taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Shu til egalarining hammasi uchun tushunarli bo'lgan bir xil talaffuz va orfografiya sohasidagi xilma-xillik ham XVI asrdayoq ingliz tili talaffuzi va orfografiya masalalariga hamda grammatik xususiyatlariga bag'ishlangan ishlarning maydonga kelishiga sabab bo'ldi. Shunday asarlardan eng birinchisi Solsberi tomomidan 1547-yilda yozilgan traktat edi.

O'sha davrda yozilgai ko'pgina lingvistik asarlarda ko'pgina xatolar va qarama-qarshiliklar bor edi. Ammo shunga qaramasdan o'sha davrda ingliz tilini normalashtirish boshlangan edi.

XVI asrdan boshlab ingliz milliy tili boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshladi. Masalan 1584-yilda protestantlarning katta guruhi Amerikaga jo'nagan edi. Ular Atlantik okeanini kesib Yangi Angliya hududiga tushgan edi. Bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsiz bo'ldi, chunki protestantlar bir- biri bilan urishib

qolishdilar, kasalliklar, ochlikka duch kelishdi. Ko'p vaqt o'tmasdan 1620-yili "Mayflower" kemasida Amerikaga bir guruh emigrantlar etib kelishdi va ular shu yerda qolib ketishdi. Keyinchalik Irlandiyada revolyutsiya bostirilgandan so'ng ingliz tili Irlandiyaga ham tarqaldi.

Ingliz milliy tilining XVII va XVIII asrning birinchi yarmidagi taraqqiyoti

XVII asrning birinchi yarmida kapitalistik ishlab chiqarishning ilg'or shakllari etilgan edi. Sanoat ishlab chiqarishiniig yangi tarmoqlari: qog'oz ishlab chiqarish, temir eritish, ko'mir qazib olish va boshqa sanoat turlari tez rivojlana bordi.

Tashqi savdoning rivojlanishi va mustamlaka mamlakatlarning ko'payishi natijasida kemasozlik ham rivojlandi. Qishloq xo'jaligida ham yangi hodisalar ko'rina boshladi.

1642-1648 yillarda Angliyada fuqarolar urushi bo'lib o'tdi. Bu urush qirol armiyasi hamda parlament armiyasi o'rtasida bo'lib o'tdi. Ushbu urushda parlament armiyasi g'alaba qozondi va 1649 yili qirol o'ldirildi hamda respublika tuzildi. Respublika boshida general Kromvel turdi. Respublikaning g'alabasi natijasida feodal munosabatlar yuqotildi va burjuaziya tarkibi tashkil topdi. Kromvel qirol bilan urush olib borgan ayni bir vaqtda Irlandiyada 1641-yilda qo'zg'olon bo'lib o'tdi va qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi.

Respublikaning g'alabasi san'at, adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Burjuaziya hokimiyatni o'z qo'liga olgandan so'ng, adabiyot normalarining shakllanishiga ham ta'sir eta boshladi (ya'ni qanday yozish, qanday gapirish).

1611-yilda qirolning buyrug'i bilan Injil ingliz tiliga tarjima qilindi. Bu ish cherkov mutasaddilari tomonidan bajarilgan bo'lib, Injil tarjimasi oddiy va tushunarli edi.

Umuman shu davrning yozuvchilari, shoirlari sodda va aniq tilda yozishar edilar. Individual shoirona stilni o'sha davrda yashagan mashhur yozuvchi Milton yaratgan bo'lib, uning asarlarida grek tili va Injilning ta'siri ko'rinar edi.

Shu davrning ikkinchi atoqli yozuvchisi Jon Benyan esa o'z asarlarini

xalqning oddiy tilida yozar edi.

Demak respublika davrining umumiy xususiyati shunda ediki, til, adabiyot, umuman san'at oddiy xalq uchun tushunarli edi. Lekin bu holat uzoq davom etmadi. 1660 yilda Styuartlar qirollik dinastiyasi qayta tiklangach Karl I o'g'li Karl II Fransiyadan qaytib kelib hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Mamlakatda yana fransuz tili va fransuz madaniyati hukmdorlik qila boshladi, chunki Karl II hokimiyatni fransuzlar yordamida qaytarib olgan edi.

Lekin o'sha vaqtdayoq puritanizmning yangi to'liqini yana bir marotaba ko'tarildi. 1667-yilda Tomas Spret tomonidan yozilgan "History of the Royal Society" degan asarida fransuz tilidan ingliz tiliga fransuz so'zlarining kirishiga qarshi chiqqan edi. Spret o'z asarida oddiy, aniq tilga qaytishni talab qilgan edi.

1668-yilda "Shonli revolyutsiya" bo'lib o'tgan edi va buning natijasida kapitalistlar va savdogarlar hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. XVII asrning burjua revolyutsiyasi ingliz absolyutizmini yo'q qildi.

XVII asrning ikkinchi yarmidan tilni va til qoidalarini sof holicha, buzilmasdan saqlashga juda katta rioya qilish oqimi g'alaba qozondi.

Shu oqimning eng birinchi namoyondalari Jon Ivlin, Jon Drayden va Richard Stil "The Spectator" (Tomashabin) jurnalini nashr etishadi. Shu jurnalda ingliz tiliga bag'ishlangan ko'p maqola va ocherklar chiqar edi.

1725-yilda Shekspirning asarlari to'plamini nashr etilishi haqida qaror qabul qilingan edi. Bu ish Aleksandr Poupga topshirilgan edi. Poun esa Shekspir asarlarini buzishga harakat qilgan edi.

XVIII-asrning boshlarida hokimiyat boshqarishining yangi turi - ingliz parlament sistemasi paydo bo'ldi. Buning xususiyatlaridan biri vazirlikning parlament oldida javobgarligini va vazirlarning palatadagi siyosiy hokim partiyadan tayinlanishi edi.

XVIII-asrning boshida ikkita siyosiy partiya bor edi: viglar partiyasi va tori partiyasi.

Viglar partiyasi yirik savdo va bank aristokratlarning manfaatdori edi. Tori partiyasi esa dvoryanlar va ingliz ruhoniylarining manfaatdori edi.

Ushbu vaqtlarda ingliz milliy tilining tashkil topishi nihoyasiga yetgan edi. Ingliz til normalari grammatikaga oid asarlarda mustahkamlangan edi.

Shuningdek, ingliz tilining milliy til bo'lib shakllanishiga Uilyam Kekston (1422-1491)ning Angliyaga kitob bosmaxonasini kiritishi bo'ldi.

1643-yilda Charlz Batlarning "Ingliz grammatikasi" (English grammar) asari nashr etildi. 1653-yilda Jop Uollis "Grammatica Linguae Anglicanae" nomli asarini yozdi.

1724-yilda Vilyam Tekrning "Rules for True Spelling and Writing" nomli asari nashrdan chiqdi. Ushbu asarida muallif ingliz so'zlarining talaffuzi va yozilishidagi farqlarni ko'rsatgan edi. Bundan tashqari shu vaqtda ko'p lug'atlar chiqqan edi, masalan Samuel Jonsonning mashxur lug'ati.

XVIII asrda tashqi savdo natijasida ingliz burjuaziyasi yangi va yangi mustamlakalarga ega bo'lgan edi. Shu asrdan boshlab ingliz tili butun dunyoga tarqala boshladi. Avvalo Kornuelda, Uelsda, keyinchalik Hindistonda, Avstraliyada, Afrikada va yetti yillik urush natijasida Kanadani qo'lga kiritdi va ingliz tili ushbu mamlakatlarga tarqaldi.

Ingliz milliy tilining hosil bo'lishida, adabiy til shakllarini normalashtirish, kitob bosmaxonasining kiritilishi mustahkam orfografik normalarni talab qilar edi. Kitob nashr etishning boshlanishi ingliz tili orfografiyasi jarayonining boshlanishiga sabab bo'ldi. Birinchi bosmalarda Kekston tomonidan kiritilgan tovushlarda noaniqlik mavjud edi. Masalan: cho'ziq [o:] dan kelib chiqqan [u:] Kekston ba'zan **oo** bilan ifodalasa ba'zan **o** bilan yozgan: **booke, boke**

Shuningdek, affikslarning ham turlicha yozilishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, o'tgan zamon shakli qo'shimchasi -ed, -id, -yd kabi orfografik belgilar bilan berilgan: **usid, concluded**.

Otlarning ko'pligini yasovchi affikslarda ham, turlilik mavjud bo'lgan. Masalan: -es, -ys. egges, eggys

XVI-XVII asrlarga kelib ingliz tili orfografiyasiga qisman o'zgarishlar kiritildi. Masalan ba'zi so'zlarda e harfining tushirilib yozilishi bo'ldi.

To goe - to go, to lacke - to lack, to sleepe - to sleep va boshqalar.

XVI-asrda soʻz oʻrtasida qoʻllaniladigan **u** harfi **i** harfiga oʻzgartirildi.

ryche - rich, descrybc - describe, lyvyng – living.

Shu bilan birga **-yng** qoʻshimchasi **-ing** qoʻshimchasi bilan qoʻllanila boshlandi. Shuningdek XVI-asrda frantsuz tilidan kirgan soʻzlarda **aun** boʻlgan boʻlsa **u** tushirilib yozila boshlandi.

To chaunge - to change, pleasaunt - pleasant va boshqalar.

XV-XVI asrlarda ingliz tili hayotida oʻziga xos hodisa roʻy berdi, ya'ni koʻpgina soʻzlarga lotin orfografiyasi kiritildi. Buning sababi frantsuz tilidan oʻzlashgan soʻzlar va ingliz tilining assimilatsiyasidagi farqlar boʻlishi mumkin. Oʻsha davrda Angliyada lotin tilini bilgan shaxslar koʻp edi. Lotinlashtirish asosan, lotin soʻzlaridagidek soʻzda yoʻq boʻlgan undosh harflarni qoʻshish yoki unli harflarni oʻzgartirish orqali amalga oshirilgan. Ushbu jarayon asosan **b, l, p, s** undosh harflari kiritilgan. **B** -harfi quyidagi soʻzlarga kiritilgan; *debte-debt, doute-doubt, sugei-subject, sotil-subtle*, **-c-** harfi quyidagi soʻzlarga kiritilgan; *enditc-indict, parfit-perfect, snget-subject, verdit-verdict*. Ushbu soʻzlar lotincha *indiciare, debiliim, subjecliis, sublilis, perfectus, verdiclnm* va boshqa soʻzlar asosida yozila boshlangan. **l,p,s** harflari ham lotin soʻzlari boʻlmish *absaltus, falco, fallita, solidum, insula* asosida quyidagi soʻzlarga kiritilgan; *assaut-assault, faucon-faulcon, faul-fault, soudior-souldier, deceit-deceipl, receit-leciept, conceit-conecipt, iland-island* va boshqalar. Shuningdek frantsuz tilidan oʻzlashgan ba'zi soʻzlarga lotincha **ad-** prefiks qoʻshilib yozilishi qabul qilingan; *avenlur-advciilre, avys-adviee, avancc-advancc, avaunlage-advaniage*.

ens- va **cs-** prefikslari lotincha **sx-** prefiksi bilan oʻzgartirilgan; *ensample - example, eschange-exchange*.

en- prefiksi **in-** prefiksiga oʻzgartirilgan: *enform-inform, encrease-increase*.

Frantsuz tilidan oʻzlashgan soʻzlarda keng tarqalgan **-cioun, -cyon** suffikslari lotincha - *lion (lionem)* suffiksi bilan almashtirilgan.

Shunday qilib, XV-XVI asrlarda ingliz tili orfografiyasida ancha oʻzgarishlar sodir boʻldi va natijada orfografiya sistemasi tovushlar sistemasidan ancha yiroqlashdi.

Unli tovushlarning buyuk siljishi (The Great Vowel Shift)

Ingliz tili unlilar sistemasidagi o'zgarish tilshunoslik adabiyotlarida **The Great Vowel Shift** nomini olgan. Ushbu unli tovushlar sistemasidagi o'zgarishlar jarayoni, Suit va Espersen fikricha XVI-asrda boshlanib, XVIII-asrda nihoyasiga etgan. Ushbu hodisaniig mohiyatini, barcha cho'ziq unlilar toraygan, qisqa unlilar diftonglashganligi bilan izohlash mumkin.

Unli tovushlarning buyuk siljishi o'rta ingliz va yangi ingliz davrlarning chegarasida bo'lib o'tib, ingliz tili tarixida juda katta ahamiyatga ega. Bu xodisa natijasida o'rta ingliz tili unli tovushlari tamoman o'zgargan edi, cho'ziq unlilar toraygan, tor unlilari [i:] va [u:] esa diftonglashgan edilar.

[i:>ai] [u:>au]

Unli tovushlarning buyuk siljishini quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin.

Bu jadvaldan kelib chikadigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish olgan: 1.O'rta-ingliz cho'ziq ochiq e (qadimiy ingliz æ va ea) yopiq e o'tgan edi. Shu unli uchun XVI asrda ea yozilishi kiritilgan edi. "ea" bu unlini boshqa bir o'rta-ingliz e unlisidan ajratish kerak edi. Ikkinchi e siljishga asosan "i" o'tgan edi va yozilishida "ee" berilar edi. Lekin XVII asrda birinchi e ham [i:] deb tallafuz etilar edi. Shundan buyon "ea" "ee" tarzida yozila boshlandi. Yoziladigan farqlar fonetik manosini yo'qotgan edi va talaffuzi farq qilmaydigan otlarni ajratilishi uchun ea, ee usuli bilan qo'llanila boshlandi.

Masalan: "**meat**" go'sht "**meet**" uchrashmoq kabi.

Se [sɛ:] > sea [sɛ:] > sea [si:]

Ete [ɛ:tə] > eat [ɛ:t] > eat [i:t]

Ba'zi bir so'zlarda o'rta ingliz e siljishi hodisasiga ko'ra [i:] o'tgan. yozilishida "u" orqali berilgan edi: **field**, **chief** yoki "ei" - **receive**.

2. O'rta ingliz tili davriga o'tishning boshlarida, ya'ni XV-asrning boshlarida London shevasida [o:]>[u:][c:]>[i:] ga o'tgan.

Roof [ro:f]>[ru:f]

Cool [ko:l] > [ku:l]

We [we:] >[wi]

Feele[fe:l]>[fi:l]

Qadimgi [a] dan hosil bo'lgan [a:] til oldi [æ:]ga keyinchalik [e:]ga va XVIII-asrga kelib [ei] diftongiga aylangan.

Take [ta:k] > [tæ:k] > [te:k] > [teik]

Shake [sha:k] > [shæ:k] > [she:k] > [sheik]

3. O'rta ingliz tili davridagi [i:] XV-asrda [ei] diftongiga aylandi. Ushbu jarayon kengayib [æi]ga o'tdi va XVII asr boshlarida [ai] diftongiga o'tdi.

Five [fi:v] > [feiv] > [faiv]

Like [li:k] > [leik] > [laik]

My [mi:] > [mei] > [mai]

Write [wri:tə] > [wreit] > [rait]

4. O'rta ingliz tili davridagi [u:] XV asrda [ou] keyinchalik [au] diftongiga o'tdi.

Town [tu:n] > [toun] > [taun]

Out [u:t] > [out] > [aut]

Ushbu hodisa [p] va [m] lab undosh tovushlari oldida diftonglashmagan.

Q.ing. drupa-> o'rt. Ing droupen > yangi. ing. droop

Q. Ing. rum > o'rt.ing. roum > yangi ing. Room.

5. O'rta ingliz tili davridagi [o:] XVIII asrga kelib [ou] diftongiga o'tgan.

Rood [ro:d] > road [roud]

ston [slo:n] > stone [stoun]

Yuqorida aytilganlarga xulosa tarzida The Great Vowel Shift hodisasining sxemasini quyidagicha izohlash mumkin:

i: —>ai o: —>u:

e: .>i: ɔ:>ou

ɛ:>i:

u:>au. a:>ei

Yangi ingliz tili davrining boshlarida qisqa unlilarda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi.

[e] > [a] were > war [war]
 sterre>star[star]
 [a] > [æ] cat [kat]> [kæt]
 land [land] >[lænd]
 [a] > [ɔ] was [was] > [wɔz]
 want [want] > [wɔnt]
 [u]>[ʌ] run [run]> [ʌ]

Shuningdek yangi ingliz tili davri bolarida ba'zi [E:] cho'ziq unilarning qisqarishi ham sodir bo'ldi. Cho'ziq [u:] tovushi [v], [d], [th] tovushlari oldidan qisqa [ʌ] ga aylandi.

Blood [blo:d]>[blu:d]>[blʌd]
 Mother [mo:ther] > [mu:th] > [mʌthə]
 Glove [glo:v]>[glu:v]>[glʌv]

O'rta ingliz tili davridagi [ɛ:] tovushi [e:]ga va keyinchalik qisqa [e] hamda ba'zi holatlarda [d], [θ]. [t] tovushlari oldidan [i:] ga o'tdi.

deed[de:d] > dead [ded]
 breed[bre:d] > bread [bred]
 heed[hɛ:d] > head [hed]
 reden [rɛ:dea] > read [re:d] > [ri:d]
 beten[bɛ.:ten] > beat [be:t] > [bi:t]

XVII-XVIII asrlarga kelib cho'ziq [u:] tovushi [k], [t], [d] tovushlari oldidan qisqa [u] ga o'tdi.

book[bo:k]>[bu:k]>[buk]
 foot [fo:t] > [fu:u] > [fut]
 stood [sto:d] > [stu:d] > [stud]

Ammo food [fu:d], mood [mu:d] kabi ba'zi so'zlarda cho'ziq [i:] saqlanib qolgan.

Yangi ingliz tili davri davomida yangi [a:], [ɔ:]. [ə:] kabi cho'ziq fonemalar paydo bo'ldi. Cho'ziq [a:] o'rta ingliz tili davridagi [a]dan kelib chiqqan bo'lib,

turlicha rivojlandi va XVIII-asrga kelib [a:] fonemasiga aylandi. Ushbu hodisa asosan [f], [s], [θ], [r] tovushlari soʻz oxirida kelganda oʻsha undosh tovush oldidan [a] ga oʻzgardi.

Pas [pas] > [pæ:s] > [pa:s]

After [after] > [æ:fter] > [a:tə]

Ammo, AQShda shunga oʻxshash holatlarda [æ:] saqlanib qolgan: pass [pæ:s], after [æ:fter].

Oʻrta ingliz tili davridagi [a] lab [l], [m] yoki [f] undosh tovush birikmalari oldidan kelganda avvalambor [au] diftongiga oʻtgan va [l], [u] tovushlarning tushishi natijasida [a:] choʻzilgan.

Calm [kaulm] > [kaum] > [ka:m]

Caulf [kaulf] > [kauf] > [ka:f]

Yangi ingliz tili davridagi choʻziq [ɔ:] bir necha unlilarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan.

Cauze [kauzə] > [kauz] > [kɔ:z]

Drau [drau] > [drau] > [drɔ:]

Talke [talkə] > [taulk] > [tɔ:k]

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, oʻrta ingliz tili davrida [ai], [ei], [au], [ou], [eu] diftonglari vujudga kelgandi. Yangi ingliz tili davriga kelib ushbu diftonglar quyidagicha rivojlandi:

[ai] va [ei] diftonglarining rivojlanishi

XII asr	XIV asr	XV asr	XVII asr
Dai [dai]	Day [dæi]	[dæ:]	[dai]
Wey [wei]	Way [wæi]	[wæ:]	[wei]

[au] diftongi yuqorida taʼkidlaganimizday monoftongga aylandi,

[ou] esa quyidagicha rivojlandi:

XIV asr	XV –XVI asrlar	XVIII asr
Snow [snou]	[sno:]	[snou]

Know [knou]	[kno:]	[nou]
-------------	--------	-------

O'rta ingliz tili davri [eu] diftongi o'rta ingliz tili davrining oxirlarida [iu]ga va XV-asrda esa [ju:] ga o'tdi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, o'rta ingliz davridagi [u:] (fransuz tilidan kirgan) tovushi ham [ju:]ga o'tdi.

XIV- asr XV-asr XVI-asr

Knew [knui] > [knju:] > [nju:]

New [niu] > [nju:] > [nju:]

Duke [dy:kə] > [dju:k] > [dju:k]

Use [y:zə] > [ju:z] > [ju:z]

Yangi ingliz tili davriga kelib (urg'usiz) so'z oxiridagi urg'usiz bo'g'inda turgan unli [a:] dan [i] ga o'tdi. Ushbu hodisani –age [idj], –ate [it] suffikslarida kuzatishimiz mumkin.

XIV-asr XV- asr XVI- asr

village[vila:j] > [vilæ:dj] > [vilidj]

private [priva:l] > [privæ:l] > [praivit]

So'z oxirida kelgan our [u:r] tovushi neytral [ə]ga o'tdi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan The Great Vowel Shift hodisasidagi o'zgarishlarda barcha olimlarning qarashlari bir xil emas.

4. Yangi ingliz tili davri davomida undoshlar sistemasida ham bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi.

1) Urg'usiz bo'g'inlardagi [f], [s], [θ] jarangsiz undosh tovushlari jaranglashdi.

2) [r] Undosh tovushi vokallashti.

3) Undoshlarning tushishi.

4) Yangi sirg'aluvchi undosh tovushlarning hosil bo'lishi

XVII asrga kelib sirg'aluvchi jarangsiz [f] undosh [v]ga, [s] undoshi jarangli [z]ga, [θ] undoshi jarangli [d]ga o'tdi.

Captif > captive[kæptiv]

motif > motive [moutiv]

was [was] > [waz] > [woz]

foxes [foksis] > [foksiz]

the [θe] > [thə]

with [wiθ] > [with]

Ammo [θ] sifat, fe'l, ot, sonlarda saqlanib qoldi.

Thick [θ], thank[θaŋk], thought[θo:t], three[θri:].

[r] undoshining vokallashuvi deganda [r] o'z oldidan kelgan unli bilan birikib, o'sha unli ta'sirida cho'ziq unli tovush hosil qilishini tushunamiz. Demak [r]ning vokallashuvi XVII-XVIII asrlarda sodir bo'lgan.

XVI

XVII-XVIII

Bark [bark] > [ba:k]

Harm [harm] > [ha:m]

Turn [turn] > [tə:n]

Here [hi:r] > [hiə]

Undoshlarning talaffuzda tushib qolish hodisasi asosan XVI-XVII asrlarda bo'lib o'tdi. Ushbu hodisa quyidagicha ko'rinish olgan.

